

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT MADANIYAT INSTITUTI

“KASBIY-PEDAGOGIK TA‘LIM” FAKULTETI

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI

“IJTIMOIYLASHUV JARAYONIDA O‘ZBEK XALQIGA XOS
FAZILATLARNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “5140900-kasb ta’limi” yo‘nalishi
bitiruvchisi M.ESONOVA.

Ilmiy rahbar: p.f.n. J.K. Fozilov.

Kafedra mudiri: p.f.n. dotsent Z.H. Qosimova

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kafedaraning 2012 yil “___” _____dagi _____sonli yig‘ilishida
muhokamadan o‘tib, himoyaga tavsiya etilgan

Toshkent – 2012

**Mavzu: Ijtimoiylashuv jarayonida o‘zbek xalqiga xos fazilatlarning
pedagogik xususiyatlari.**

Kirish.

I. Bob.Shaxs va uning jamiyatda ijtimoiylashuv jarayoni.

1.1. Ijtimoiylashuv tushunchasining mohiyat mazmuni vositalari, mexanizm, omillari.

1.2. Shaxs ijtimoiylashuvida oila, maktab, mahallaning o‘rni.

**II. Bob.Ijtimoiylashuv jarayonida o‘zbek xalq pedagogikasining
amaliy ahamiyati.**

2.1. O‘zbek xalq pedagogikasining ijtimoiy xususiyatlari.

2.2. O‘zbek xalq mentaliteti ijtimoiylashuvining an’anaviy omili sifatida.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Ilovalar.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: O‘zbekiston Respublikamizdagi mustaqil huquqiy, demakiratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashfqilishga, uni o‘zligini anglashga imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga va ma’naviy intilektual, aqliy-amaliy rivojlanishi uchun yangi shart-sharoitlar yaratib beradi.

Hammamizga yaxshi, ma’lumki, yoshlik intilishlari chegara bilmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ezgu orzu-niyatlar bilan yonib yashayotgan yigit qizlarga ular ko‘zlayotgan yuksak ufqlar, buyuk maqsadlar, avvalo, insonning o‘zi uchun yurti va xalqi uchun foydali ekanligini ochib berish mumkin¹.

Bu o‘z navbatida insoniyat yaratgan an’naviy ilmiy boyliklarga, insonning o‘ziga yangicha munosabat yondoshuvini yuzaga keltirdi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek “Fuqarolar endi ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi bajaruvchisi emas balki bunyodkori va tashkilotchisidir”.² O‘zbekiston fuqarolari hayotida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash masalalari Preziden I.A.Karimov asarlarida va chiqishlarida ham muhimo‘rin tutmoqda. Bundan tashqari hozirgi vaqtda ta’lim mazmuniga shaxsning ijtimoiylashuvi masalasi asosiy g‘oya sifatida kiritilayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Ijtimoyilashuv jarayoni XX asr o‘rtalariga kelib inson rivojlanishini butun umri mobaynida o‘rganuvchi hamda fanlararo bog‘lonuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi.

Insonning ijtimoyilashuvi moslashuvi uning bilishga bo‘lgan ob’yektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo‘ladi. Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko‘p qirrali jarayondir. U ayniqsa, bolalik va yoshlik davrlarida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki, shaxs tomonidan aynan bolalik davrida asosiy ijtimoiy me’yorlar o‘zlashtiriladi. So‘ngi o‘n yilliklar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o‘zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, bu muammoga alohida e’tibor

¹Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat.-T: O‘zbekiston 1995. 66-67 betlar.

²Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari.-T: O‘zbekiston, 1997. 112-130 betlar.

qaratish lozim. Shu bilan birga ba'zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishsa, boshqalari esa tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o'rganishmoqda. Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayon bo'lib bunda inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim va tarbiya jarayonini olib boruvchi va tashkillashtiruvchi ishtirokchilardan bo'lgan eng avvalo oila so'ng maktab, oliy ta'lim, nodavlat tizimlaridan barkamol shaxslarni tarbiyalash talab etiladi. Shaxs tarbiyasi o'z navbatida uning jamiyat hayoti bilan muhim aloqadorligini nazarda tutadi.

Shaxs-jamiyat maxsuli bo'lib, u inson ijtimoiylashuvi jarayoni bilan uzviy bog'liq pedagogik hodisadir. Bola ijtimoiylashuvini tashkil qilmasdan turib shaxs shakllanishini ta'minlab bo'lmaydi. Demak inson tarbiyasida uni shaxs darajasiga olib kelishda ijtimoiylashuv juda katta o'rin tutadi. Bola ijtimoiylashuvi esa eng avvalo oilada kechadi. Man shu inson ijtimoiylashuvi jarayonida ilk eng muhim va tabiiy bo'g'in sifatida oilaning pedagogik o'rni hamda ahamiyati betakror hisoblanadi.

Oilada ijtimoiylashuv bolaning tashqi muhit va butun jamiyat bilan aloqalari hamda aloqadorligining shakllanishi, kengayish va ta'minlanishi orqali kechadi. Bolaning jamiyat hayotiga bo'lgan munosabati va mazmunining shakllanishida ham oila muhiti alohida o'rin tutadi. Ijtimoiylashuv nafaqat shaxsning jamiyatda qulayliklarga ega bo'lishini balki shaxsning muayyan axloqiy va etnik qoidalarini egallashini ham nazarda tutadi.

Inson ijtimoiylashuviningyana bir asosiy omili mahalladir. Shunday ekan o'zbek mintalitetining muhim xususiyatlaridan biri maxsus ijtimoiy tuzilma mahallaning mavjudligidir. Mahallaning demokratiyalashuv, ijtimoiylashuv insoniylashuv va mukammallashuv jarayonlariga faol ta'sir qila olishini Prezident I.A Karimov quyidagicha ta'kidlab o'tgan " Mahalla bizning jamiyat hayotida insoniy tarbiya va kelishuvning o'zgaras manbasi".¹ Tarixning guvohlik berishicha, bizning davlat daryolar bo'yida paydo bo'lgan. Tabiat kattatezimlari tashqi hayvonlarni birgalikda

¹Karimov.I.A. Barkamol avlod Obekiston taraqqiyotining poydevori,-T:Sharq. 1991. 24-27 betlar.

yengish qiyin kunlarda qo'llab quvvatlash bizning ajdodlarimizni jamoa bo'lib yashashga o'rgatgan.

Mehribonlik, rahimdillik kabi insoniy xislatlar aynan mahallada shakllanadi. Bu ma'noda mahallani o'z-o'zini boshqarish maktabi kerak bo'lsa demokratiya maktabi desak bo'ladi. Bozor munosabatlarini shakllantirishning murakkab holati mahallaning ijtimoiylashtirish roli oshib ketdi. Bu avvalombor oila qadriyatlarini saqlab qolishda namoyon bo'ldi. Shunday ekan oilaning vazifasi bolani asta sekinlik bilan jamiyatga tayyorlashdir.

Ijtimoiy pedagog kasbi insonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimida faoliyat yurituvchi ko'pqirrali soha bo'lib, pedagogning qaysi ishda ishlashidan qathiy nazar odamlar bilan va avvalo bolalar bilan ishlashga yo'naltirilgan. Muloqot jarayonida pedagog ko'p ruhiy og'irlikni va charchoqni o'zida sinashiga to'g'ri keladi. Shu bois uning asab tizimi ham mustahkam bo'lishi darkor. Bu narsa unga ijtimoiy-pedagogik, ruhiy-tegapdevtik jarayonlarda emotsional qiyinchiliklar bilan to'qnashuvda yordam beradi.

Ajdodlar tajribasini o'rganish zamonaviy pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biridir. Bola ijtimoiylashuvi jarayonida ajdodlar merosidan foydalangan holda tarbiyalash lozim. Bunda bizda o'zbek xalq pedagogikasida murojat qilamiz.

Xalq pedagogikasining tengsiz qadriyati shuki, u birinchidan asrlar davomida shakllangan pedagogik haqiqatlarga ega, ikkinchidan esa hayotiy amaliy tavsifga ega u o'z ifodasini barcha g'oyalari amaliy tajribaga asoslanganligi, amaliyotda sinalgan va yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy faoliyatga qaratilganligida topadi. Xalq pedagogikasi jamiyatning pedagogik madaniyati eng yaxshi qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib bu kattalarga hurmat mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, axloqlik, rostgo'ylik va boshqalar. Ijtimoiy pedagogikaning bugungi kundagi dolzarbli bitiruv malakaviy ishining boblaridan tashkil topgan.

O'zbek xalqida shunday naql bor "Chaqaloq hali shaxs emas u tom ma'nodagi inson bo'ladimi, yo'qmi bu uning ota-onasi uni o'rab turgan muhit va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatiga bog'liq". Shuning uchun ham xalq pedagogikasida go'dak

faqatgina avlodlar tomonidan erishilgan ishlab chiqilgan turli ong shakllarini o'zlashtirsagina shaxsga aylanadi deb ta'kidlanadi. Mana shular ijtimoiylashuvining yetakchi vositalaridir. Bola ijtimoiylashuvida muloqot (Ota –onalar tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o'yin, o'qish, ijod, sport) ham ijtimoiylashuvning yetakchi vositasi sanaladi.

Mamlakatimiz aholisining 60 % dan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan yoshlar siyosatiga alohida ahamiyat bera boshladi. Lekin, o'smirlarning ijtimoiylashuvida yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanish bir xil kechmaydi, chunki ularga ta'sir etuvchi qator omillar mavjudki, o'smir ularning qaysi sifatlaridan ibrat olishi qator omillarga bog'liq. Bu borada Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidiki “ Tariximizda o'tgan ulug' zotlarning hayot yo'li qoldirgan merosini bir yoqlamalikka berilmay, to'g'ri va haqqoniy aks ettirish dardkor. Toki ular yoshlar uchun tom ma'noda ibrat namunasi bo'lsin”.¹

Ijtimoiylashuvda anashularni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun o'smirlik davri xususiyatlarini zamon talablari hamda milliy an'analar bilan hamkorlikda o'rganib tegishli ijtimoiy–psixologik pedagogik tadbirlarni belgilab olish zarur bo'ladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: hozirgacha soha mutaxassislaridan ko'pchiligi o'smir psixologiya muommolarining qator qirralarini o'rganganlar. O'smirlik davrining murakkabliklari muommosi jahon ijtimoiy psixologiya fanidan xususan G'arb va Rossiyada O. Birem, R. Bares, B. Berkson, D. R. Keller, I. S. Kon, A. V. Leontev, A. S. Makarenko ilmiy tadqiqotlarida yaratilgan. Bulardan tashqari ijtimoiylashuv davrida bola xulqining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarini aniqlash masalasi Rossiyalik olimlar B. Ananov, M. Arxangel'skiy, O. Ionov, I. Konlar tomonidan tadbiq etilgan.

O'zbekistonda oila va undagi o'zaro munosabatlarda alohida qadriyatsifatida qaralishi bu borada yurtimizga xos bo'lgan xususiyatlarni ifodalaydi. Shu bois mavjud muammoni xududiy va etno psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'rganish zarur. Shaxsning psixologik xususiyatlari va ijtimoiylashuvi har bir davrida turlicha

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-T: “Ma'naviyat” 2008. 171-46-bet.

bo'lishi mamlakatimiz olimlaridan M.G Davlatshen, I. G'. G'oziyev, G'. B. Shoumarov, R.I Sunnatova V.N. Karimova va boshqalarning tadqiqotlarida bayon etilgan. Lekin maskur ishlarda o'smirlar ijtimoiylashuvida oiladan tashqari boshqa omillar, ya'ni qarindoshlar ommaviy axborot vositalari tengdoshlar, sportchilar, aktiyorlar, tanish bilishlarning ta'siri alohida tadqiqot prinsipi sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: Ijtimoiylashuv jarayonida o'zbek xalqiga xos fazilatlarining pedagogik xususiyatlari jarayoni tahlili yechimi.

Tadqiqotning predmeti: ijtimoiylashuv jarayonida xalq pedagogikasining roli, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va shakllari belgilangan.

Tadqiqotning ob'yekti: XTB tasarufidagi profil mehnat ta'limiga asoslangan ixtisoslashtirilgan 190-umum ta'lim maktab. 14-15 yoshdagi o'quvchilar bilan jamiyat haqidagi qarashlari va tushunchalari borasida suhbat o'tkazildi.

Tadqiqotning vazifalari:

1. O'smirlar ijtimoiylashuviga turli agentlar ta'sir mexanizmlarini o'rganish va aniqlash.
2. Ota-ona va mahallaning ijtimoiylashuvga munosabati va bolaning shaxs bo'lib shakllanishiga ta'sirini o'rganish.
3. O'smirlar ijtimoiylashuvida ta'sirlanish, taqlid qay tarzda va qaydarajada bog'liqligini aniqlash.
4. O'mirlar ijtimoiylashuvidagi o'ziga xosliklar, ijtimoiylashuvning etno psixologik xususiyatlari, ijtimoiy qadriyatlar va ustunovkalarining psixologik mohiyatini va uning shakllanishida oila rolini ilmiy jihatdan talqin qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. O'smirlar ijtimoiylashuvida pedagogikaning xususiyatlari, agentlarining ta'sir mexanizmlarini aniqlashda ko'rinadi.
2. Bola shaxsnining shakllanishida ijtimoiylashuv ob'yekti bo'ladigan xodisa va ob'yektlar ya'ni ota-ona, boshqa oila az'olariga, qarindosh urug'lar, o'qituvchilar, tengdoshlariga bo'lgan munosabatlar ko'rsatgichlari ommaviy axborot vositalarining

psixologik ta'sir o'tkazish mexanizmlari demografik hamda jinsiy tafovutlarining roli aniqlanganida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning metodologik asosi: ushbu mavzuni taxlil qilishda va uni yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A.Karimovning asarlarida kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muammolari, ta'lim muammolari, xalq ta'limi, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, G.G.To'laganova. E.G'.G'oziyev. N.M. Mullaboyeva.va boshqalarning ilmiy ishlaridanva Kasb-hunar ta'limi ilmiy metodik jurnal adabiyotlaridan Respublikamizning ushbu sohasidagi mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilarning tahliliy ma'lumotlari ishda o'z aksini topgan.

Tadqiqotning metodlari: pedagogik adabiyot ko'plab anjuman va yig'ilishlarda oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari hamda akademik letsiy, kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari malakasini oshirish va qayta tayyorlash kabi iboralar keng qo'llanilmoqda.

- Pedagogik tajribani o'rganish
- Pedagogik kuzatuv.
- Suxbat so'rovnoma va test.
- Matematik tahlil.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: Tadqiqotning nazariy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligidan kelib chiqadi. Tadqiqot dasturini yaratish statistik tahlil o'smirlar ijtimoiylashuvida oilaning roli va psixologik xususiyatlariningo'rganilishi psixologiya faniga nazariy xissa bo'lib qo'shildi. O'smirlar ijtimoiylashuvida muhim va uncha ahamiyatga ega bo'lmagan mexanizmlarni, o'smirlar ijtimoiylashuvida kimning ta'siri kuchli ekanligini aniqlash bu jarayonga rejali ta'sir o'tkazish imkonini beradi. Uning nazariy ahamiyati o'tkazilgan ilmiy tahlillar va olingan xulosalar psixologiya faning "ijtimoiy psixologiya", "oila psixologiyasi", "shaxslar aro munosabatlar psixologiyasi", "tarbiya psixologiyasi", kabi saholarini yanada boyitishga xizmat qilishida ham namoyon bo'ladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalaridan o'smirlar ijtimoiylashuvi yo'nalishlari va sur'atlarini opptemallashtirishda,

amaliypsixologlar uchun psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

Tadqiqotningstrukturaviy tuzilishi: kirish, asosiy qism (2-bobdan iborat), xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

I Bob. Shaxs va uning jamiyatda ijtimoiylashuv jarayoni.

1.1. Ijtimoiylashuv tushunchasining mohiyat mazmuni vositalari, mexanizm, omillari

Ijtimoiylashuv tushunchasi. “ijtimoiylashuv” so’zi dastlab siyosiy iqtisodiyotdan kelib chiqqan. U siyosiy-iqtisodiyotda yer va ishlab chiqarish vositalarining umumlashuvi ma’nosini anglatgan.

“Ijtimoiylashuv” atamasini birinchi bo‘lib amerikalik sotsiolog F.G.Keddings insonlarga nisbatan qo‘llagan. U “Ijtimoiylashuv nazaryasi” (1987) kitobida hozirda yaqin ma’noda “ijtimoiy tabiat yoki individ harakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy himoyaga tayyorlashdir” degan fikrni bildiradi.

XX asr o‘rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini butun umri mobaynida o‘rganuvchi hamda fanlararo bog‘lanuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli konvensiyalarini tashkil qilish uni, shartli ravishda, ikki asosiy yondashuvga ajratish imkonini beradi:

- sub'yektiv-ob'yektiv. Unda insonga jamiyat ta'sirining sust iste'molchisi sifatida qaraladi (E. Dyurkgeym, T. Parsons);
- sub'yektiv-sub'yektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o‘rni, uning hayotiy holatlarga ta'sir etish qobiliyati nazarda tutiladi.

Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning hozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko‘proq mos keladi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatini o‘zlashtirish jarayonidagi rivojlanishi va o‘zgarishi bilan belgilanadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni. Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo‘lgan ob'yektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo‘ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bolada boshqa bir ob'yektiv ehtiyoj-o‘ziga xoslikni namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro‘y beradi. Shaxsning faqat o‘ziga tegishli bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo‘ladi. uning ijtimoiy xulq-atvori esa takrorlanmas jihatlariga ega bo‘ladi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liqbo'lgan ikki yo'nalishda olib boriladi: moslashuv (ijtimoiy madaniy tajriba. madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik nisbatan o'zga xoslikka ega bo'lish). Shunday qilib ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy faqat inson shaxsining moslashuvi va individuallashuvi jarayonlarini o'zaro bog'laydi. Inson (bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi yoki undan ajralib chiqishi (individuallashuvi) ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini tashkil qiladi. Moslashish sub'yekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J. Pia Je, R. Mertoj).

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudotga aylanish jarayoni va natijasidir.

Individuallashuv insonning ob'yektiv ehtiyojlar bilan bog'liq holda jamiyatda ma'lum darajada alohidalikka intilishi bo'lib, uning yoshligidayoq o'z-o'zini namoyon qilishga bo'lgan harakatlarida paydo bo'ldi. Bu ehtiyoj quyidagicha namoyon bo'ldi:

- a) o'zqarashlariga ega bo'lish;
- b) o'ziga xosliklarga ega bo'lish;
- v) o'ziga tegishli bo'lgan masalalarni o'zi hal qilish;
- g) o'z mavquyeini qaytib olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qartib turish.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida moslashuv va individuallashuv jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y beradi. Shu bilan birga, bunday hollarda shaxs va muhitning o'zaro ta'sir etishi ham sodir bo'ldi.

Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o'rtasida muvozanat saqlagandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon uch asosiy sohada amalga oshadi:

1. Faoliyat turlarining kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljal olish.
2. Muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish.

3. Shaxsiy “Men” obrazini faoliyatining faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o‘z ijtimoiy mansubligi va o‘rnini anglash, o‘ziga baho berishni shakllantirish.

Ijtimoiylashuv vositalari inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xosbo‘lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi. Ularga quyidagilar kiradi: go‘dakni emizish va g‘amxo‘rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari, insonni o‘rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy- madaniyat unsurlari (alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko‘p sonli munosabatlari: muloqot, o‘yinlar, ma'naviy amaliy faoliyat, sport bilan shug‘ullanish.

Har bir jamiyat, davlat ijtimoiy guruh ijobiy va salbiy, rasmiy va qolaversa qarorlar, taqiqlashlar, ruxsat berish, majburlash kabi chora-tadbirlarni ishlab chiqldi. Bu choralar yordamida inson xulq-atvori shu jamiyatda qabul qilingan me'yoriy qadriyatlarga moslashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari,muloqot (ota- onalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o‘yin, o‘qish, ijod, sport). Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga xilma-xil faoliyat turlari mos kelishi aniq bo‘lgan.

Bolaning barqaror rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri muloqotdir.muloqot va faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo‘llaniladi:

- 1) go‘daklik davri-bevosita hissiy-ruhiy;
- 2) go‘daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat;
- 3) maktabgacha davr-rolli o‘yinlar;
- 4) ilk maktab davri-o‘quv faoliyati;
- 5) o‘smirlik davri-kasb ta'limi faoliyati;
- 6) o‘spirinlik davri-shaxsiy muloqot faoliyati.

Ijtimoiylashuv agentlari. Insonning voyaga yetishida vashakllanishi jarayonida u bilan bevosita munosabatda bo‘lgan kishilar muhim o‘rin tutadilar. Ularni ijtimoiy

pedagogikaga oid adabiyotlarda “ijtimoiylashuv agentlari” deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turlicha bo’ladi. Bolalar va o’smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, qo’shnilar agent bo’lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib, agentlar qatoriga turmush o’rtog’i va hamkasblari ham qo’shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o’rniga, inson uchun ahamiyatiga qarab agentlar faol ta’sir etuvchi va faol ta’sir ko’rsatmaydigan agentlarga farqlanadi.

Ijtimoiylashuv

mexanizmlari. Insonning ijtimoiylashuv turli omillar, agentlar bilan hamkorlik davabir qator mexanizmlar asosida amalga oshadi.

Fransuz olimi Gabriel Tard,

Amerikalik Uri Bropfenbreiye, rus olimlaridan V. S. Muxinava A. V. Petrovskiylarning tadqiqotlarida ijtimoiylashuv mexanizmlari gaturlichayondashuvlarkeltiriladi.

Mavjud ma’lumotlarning umumlashtirilishi quyidagi mexanizmlarni alohida ajratib ko’rsatishimkonini beradi:

I. P. Podlaso’ytasni fibo’yicha, ijtimoiylashuv mexanizmlari quyidagilardan iborat:

Bostirish mexanizmi. Uning mazmuni muayyan g’oya, fikr, xohish, istaklarni ongidan chiqarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashqi va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm ham o’z o’rnida ixtiyoriy va g’ayri ixtiyoriy gabo’linadi. G’ayri ixtiyoriy mexanizm unutishdir. Ixtiyoriy bostirish mexanizmi iroda kuchi bilan amalga oshiriladi. Tashqi bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarqalgan usulidir.

Ajratish

mexanizmi. Bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o’zi uchun yomonta’surotlardan voz kechish bilan bog’liq. Ajratish mexanizmi, odatda, nizolarni hal qilishda kuzatiladi.

O’z-o’zini

cheklash

mexanizmi. Bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o’rintutadi. Agar tarbiya lanuvchi ga uning yutuqlarida o’stlarini kidan ko’ra ahamiyatsizroqtuyulsa, uning o’ziganisbatan hurmatipasaayadi, yomon o’qiy boshlaydi. Bu esa uning o’z “Men”ini cheklab qo’yishi va qiyinchiliklar oldida ojiz qolishi, demakdir. Ba’zi hollarda o’z-o’zini

cheklash mexanizmini qo'llashni oqlasa bo'ladi. Chunki bu holatda moslashuv sodir bo'lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o'z-o'zini cheklash o'z-o'ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Oqibatda bola o'zsalohiyatini bilmay turib, ilk muvaffaqiyatsizlikdan so'ng boshlagan ishini tashlab quyib, oqimga qarab suza boshlaydi;

Loyhalash mexanizmining-mohiyatini o'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli, deb hisoblash tashkil qiladi. O'ziga yoki boshqalarga qarshi qaratilgan salbiy hissiyotlar yordamida inson o'z iga bo'lgan hurmatni saqlab qoladi. Shubilan inson boshqalardan gumonsiraydi, xudbin hammani xudbin deb hisoblaydi.

Identifikatsiyalash-ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmidir. Identifikatsiya jarayonida tarbiyalanuvchi hayolan o'zini o'rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikatsiya ob'yekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo'lishi mumkin. Identifikatsiyaning to'liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud. Identifikatsiya mexanizimi introyeksiya mexanizimi bilan juda bog'liq. Bunda boshqalarning xislatlari, guyoki "ketma-ket terilganday", maxsus o'zgartirilmagan holda bola ongida o'zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsada, uning natijalarini anglab olish unchalik murakkab emas.

Empatiya-mexanizmi boshqa odamning hissiyholatiga hamdard bo'lish. Bu mexanizm hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega.

Intellektuallashuv-mexanizmida katta yoshdagi tarbiyalanuvchi abstrakt fikr lay boshlaydi vavaziyatdan chiqib ketish yo'lini o'zi uchun emas, go'yoki boshqa odam uchun qidirayotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi dayotiy mug'im muammolarga (kasallik boshqa maktabga o'tish, institutga kirish) duchor bo'lganda namoyon bo'ladi.

Harakatlarni bekor qilish-mexanizmi fikr, hissiyot, harakatlarni susaytirish uchun qo'llaniladi. Tarbiyalanuvchi kechirim so'raganida, uning hatolarining kechirilishi va sof vijdon bilan faoliyatini davom ettirishiga ishonadi. Ko'pchilik shu tarzda komillikka erishadi.

I. V. Mudrikning fikricha, psixologik va ijtimoiy psixologik mexanizmlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Imprinting-(xotirada saqlab qolish) - insonning unga ta'sir qiladigan hayotiy muhim ob'yektlarni eslab qolishi. Bu mexanizm, odatda, go'daklik davrida ko'pqo'llaniladi. Biroq keyingi yosh davrlarida ham kuzatishimiz mumkin.

Eksiztensial-bosim mexanizmini o'zlashtirish vao'zaro munosabatga kirishganda kerak bo'ladigan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga anglamagan holda ega bo'lish.

Taqlid biror-bir "namuna"ga o'xshash uchun harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to'plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo'llaridan biridir.

Refleksiya mexanizmi-ichki suhbat. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obru-e'tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko'rib chiqadi yoki inkoretadi. Refleksiya insonning turli "Men" obrazlari orasidagi real vahayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi ro'y beradi.

Bundan tashqari, ijtimoiylashuvning ijtimoiy pedagogik mexanizmlariga an'anaviy va institutsional mexanizmlarni ham kiritsa bo'ladi:

An'anaviy mexanizm-inson tomonidan oila, atrof-muhit, qo'shnilar.o'rtoqlarigaxos me'yor, qarash steriotiplarini O'zlashtirishni ko'zdatutadi. Bu o'zlashtirish ongsiz ravishda amalga oshirilib, taassurotlar yordamida sodir bo'ladi.

Institutsional mexanizm-insonning jamiyat institutlari va turli tashkilotlar bilan o'zaro munosabati jarayonida kuzatiladi. Bu jarayonda inson turli bilim va tajribalarni to'plashi mumkin.!

Ijtimoiylashuv omillari.Ijtimoiylashuv bolalar o'smirlar, yoshlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabat jarayonida yuzaga keladi.Insongata'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi.Hozircha ularning hammasiham aniqlanmagan bo'lib, ular haqidagi bilimlar yetarli emas. Ijtimoiylashuvning omillari ikki guruhga bo'linadi tashqi va ichki.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

Megaomillar-(mega - eng katta) - kosmos, yer shari va planetar jarayonlar.

Makroomillarga-(makro-katta)-davlat, xalq, jamiyat, shuningdekbularga demografik ijtimoiy, siyosiy, ekologik ya'ni yerning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadigan omillar kiritiladi.

Mezoomillar-(mezo-o'rta)-hudud va yashash joyidagi ommaviy aloqa tarmoqlari, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko'ra ajratilgan guruhlarining ijtimoiylashuvining shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, hamda shu hududning OAVlarigata'sir qiladi.

Mikroomillarya'ni muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, bunga oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

Shaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhitsotsium yoki mikrosotsium deyiladi.

Tashqi ijtimoiy omillardan tashqari, ichki biologik omillar ham mavjud. Ularni bir-biridan mustaqil o'rganishning iloji yo'q. Shu sababli zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillar, ularning o'zaro munosabati kuzatiladi.

Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiluvchi umumiy jihatlarni aniqlaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o'xshashlik xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra, bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va his-tuyg'u organlari, shuningdek qomatbuzilishi, soch, teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror-bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayoti, ta'lim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Ota-onadan bolaga o'tuvchi bir qator kasalliklar mavjud. Masalan: qon kasalliklari, shizofreniya, epilepsiya, daun kasalligi va boshqalar. Bu kasalliklarni ginetika fani o'rganadi.

Ma'lumki, bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosfera va suv xavzalarining ifloslanishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli tug'ilayotgan bolalar soni borgan sari ko'paymoqda. Bunday bolalarning boshqalar bilan muloqatga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. Shu sababli ular uchun o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda. Bu metodlar ularning qliiy rivojlanishida tengdoshlariga yetishishlari uchun yordam beradi. Jismonan nuqsonli bolalar bilan mahsus pedagoglar shug'illanadilar. Bu bolalar tengqurlari bilan muloqatga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini ma'lum darajada qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi balaga tashqi olam bilan alloqa qilish kanallarini ochishdir¹.

Ijtimoiy omillar.Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub'yektga aylanishi uning ijtimoiylashuvi jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo'ldi.Bu jarayon shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan qadriyat, ijtimoiy me'yor hamda xulq-atvor namunasi orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa, bolalik va yoshlik davrlarida nixoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki shaxs tomonidan aynan bolalik davrida asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega.Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi.Agar bola turilgandan keyin, asosan, oilada rivojlansa.uning keyingi rivojlanishi turli muhitlar maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Bola o'sib borgan sari, uning ijtimoiy muhiti "hududi" kengayib boradi.Bola qanchalik ko'p muxitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan, uni yaxshi tushunadigan va unga hurmat bilan munosabatda bo'ldigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yurishi mumkin. Muhit bolaning ijtimoiylashuv jarayoni va ijtimoiy tajriba to'plashida muhim ahamiyatga ega.

¹Nodira Egamberdiyeva. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent.,2009. 88-97 betlar.

Muhit tushunchasi turli fan vakillari sotsiologlar, psixologlar, pedagoglarning o'rganish ob'yekti hisoblanadi. Ular muhitning bunyodkorlik salohiyati va bola shakllanishi, rivojlanishidagi ta'sirini o'rganadilar.

Ijtimoiylashuv jarayonida muhitiing o'rni. Ijtimoiy pedagogikada jamiyat, ijtimoiy muhit, avvalambor, bolaning yangi muhitga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Bunda inson va unga ta'sir qiluvchi tashqi omillarning jamiyatdagi o'zaro munosabati hamkorlik tavsifi ega ekanligi muhimdir. Muhit inson kirib borishi, o'zini qulay sezishi uchun qayerda joylashganini bilishi yetarli bo'lgan ko'cha, uy va shu kabi narsalar emas. Balki muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi vaqanchalari bilan tavsiflanadigan inson jamoalari hamdir. Shuninguchun ham inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi, o'zgartiradi va o'z o'rnida muhit ham insonning oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ldi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtning o'zida bir qancha mavqelarni egallashi mumkin. Masalan, ayol ham rafika, ham ona, ham ustoz mavqelarini egallashi mumkin, har bir mavqeinsonga muayyan talablarni qo'yadiva, shu bilan birga, unga bir qancha huquqlarni beradi. Insonning jamiyatdagi muayyan huquq va majburiyatlari bilan tavsiflanadigan mavqe ijtimoiy maqom deyiladi.

Insonning ijtimoiy maqomiga millati, tug'ilgan joyi, familiyasi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday maqomlar, odatda, tug'ma maqom deyiladi. Boshqalari esa inson jamiyatda nimalarga mustaqil erishganligiga qarab belgilanadi. Masalan, ijtimoiy pedagog maqomiga u sohadagi kasb tayyorlovchi o'quv muassasasida ta'lim olgan va bu soha bo'yicha diplomga ega bo'lgan shaxs erishishi mumkin. Yuqoridagi maqomni shunga kiritilgan maqom desak adashmagan bo'lamiz.

Maqom insonning jamiyatdagi xulq-atvorini muayyan vaziyatlarda o'zini shu maqomdagilar holatiga ko'ra belgilaydi. Atrofdagilar u shaxsdan nima kutishlari ham

muhimdir. Shuning uchun inson maqomi bilan belgilanadigan xulq-atvor ijtimoiy rol deyiladi. Turli ijtimoiy rollarni o'zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning murakkablik jihati shundaki, jamiyatda faqat jamiyat tomonidan ma'qullanadigan maqomlar bo'lmasdan, balki ijtimoiy me'yyor va qadriyatlarga mos kelmaydigan maqomlar ham mavjud. Shuning uchun bola shakllanish va rivojlanish jarayonida ham ijobiy, ham salbiy rollarni o'zlashtirishi mumkin.

Ijobiy rollarga, avvalo, oila a'zosi ning rolini kiritsak bo'ladi. Oilada bola bunday rollarning bir nechtasini o'zlashtiradi: o'gil yoki qiz, aka yoki opa, jiyan, nabira, shuningdek bobokalonlari bilan ham tanishishi mumkin.

Bola o'z rivojlanishi davomida o'zlashtiradigan yana bir muhim rol jamoa a'zosi rolidir. Bola bog'cha yoki maktabda, sport to'garagida tengqurlari bilan muomala qilganida jamoa a'zosi, o'rtoq o'quvchi, yetakchi kabi rollarni o'zlashtiradi. Bundan tashqari, har bir inson iste'molchi rolini bajaradi. Chunki u hayoti mobaynida zarur bo'lgan narsalarga doim ehtiyoj sezadi. Bular: ovqat, kiyim-kechak kitob va boshqalar. Jamiyat insonigataqdim etgan xizmatlardan oqilona foydalana olishni bola yoshligidayoqo'zlashtirishi lozim.

Yana bir muhim ijtimoiy rol o'z Vatani fuqarosi bo'lish, uni sevish, u bilan faxrlanish, vatanparvar bo'lish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, bola o'zlashtirishi mumkin bo'lgan boshqa rollar ham bor. Masalan, mutaxassis roli. Uni bola maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari da o'zlashtiradi. Salbiy rollarga daydi, tilanchi, muttaham rollarini misol qilsak bo'ladi. Katta shahar ko'chalarida, savdo dukonlari bozor, jamoa transportlarida tilanchi bolalarni ham uchratishimiz mumkin. Ular bu rollarga ko'nikishgan. O'tgan-qaytganlardan mohirlik bilan pul undirib olishadi. Ular orasida o'g'rilik bilan shug'ullanadiganlari ham uchraydi. Ba'zi rollarda bo'lsa, ularni bu ishga kattalar undashadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi uning ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. "Ijtimoiy moslashuv" deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishitushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanib, asosan, uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muloqot va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala doirasining kengayishi, uning mazmunini chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi sodir bo'ldi. Anglash sohasida o'z "Men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

Tarbiya ijtimoiylashuv sifatida. So'ngi o'n yilliklar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, bu muammoga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, ba'zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishsa, boshqalari esa tarbiyani bola ijtimoiylashuviningbir qismi sifatida o'rganishmoqda. Yana bir guruh olimlar ijtimoiylashuv deganda, fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To'rtinchi guruh olimlar shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi, deb hisoblashadi. Qarashlar bir-biridan ma'lum darajada farq qilgani bilan, tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini hamma tan oladi. Tarbiyaning asosida ijtimoiy harakat bo'lishi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi. Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan Maks Veber uni muammolarni yechishga qaratilgan harakat, inson xulq-atvorining taxminiy variantlarini sub'yektiv anglash sifatida ta'riflagan.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayon bo'lib, bunda inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo'ladi. Tarbiya tor ma'noda esa diskret (uzlukli) jarayondir. Chunki, u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo'ldi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biridir. Shunga qaramay, hanuzgacha tarbiyaning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Bunga uning ko'p ma'noliligini ijtimoiy hodisa, faoliyat, jarayon, qadriyat, tizim, ta'sir, o'zaro munosabat sifatida ko'rilishi mumkinligini sabab qilib ko'rsatsak bo'ladi. Bu tushunchalarning hech qaysi biri tarbiya mazmunini alohida olgan holatda to'liq ochib bera olmaydi.

Quyida tarbiyaning ijtimoiylashuvga nisbatan ijtimoiy nazoratqilinuvchi jarayonga xos bo'lgan umumiyligini o'zida aks ettirishga harakatqolgan ta'rifi keltirilgan. Biroqunda oilaviy, diniy, ijtimoiy tarbiyaning xususiyatlari inobatga olinmagan. A. V. Mudrik quyidagi ta'rifni ilgari suradi:

Tarbiya - insonning jamiyatga ko'nikishiga ko'maklashuvchi va bu ko'nikish sodir etiladigan guruh va tashkilotlarning xususiyatlariga moys keluvchi sharoitlar yaratuvchi insoning ongli rivojlanishi. Bu ta'rifni ham to'liqva butunlay turi, deb bo'lmaydi. Unda muallifning nuqtai nazari o'z aksini topgan.

Tarbiya ijtimoiy omillarni insonga ta'sir ko'rsatishining tarkibiy qismi bo'lish bilan birga, o'z xususiyatlariga ham ega. Bu jarayon boshqalaridan farqli ravishda, doimo bir maqsad sari yo'naltirilgan va bu faoliyat maxsus tayyorlangan odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya jarayonida bola ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi boshqa omillar: muhit, OAVlari, madaniyatlar inobatga olinadi. Biroq shuni esda tutish lozimki, tarbiya boshqa ijtimoiy omillar ichida o'z o'rniga ega bo'lib, boshqa omillarning o'rnini to'liq to'ldira oladi va bekor qila oladi.

Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqto'tgan sari o'zgaradi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, tarbiya uning shakllanishiga shunchalik ko'p ta'sir ko'rsatadi. Vaqto'tgani sayin tarbiyaning bola shakllanishidagi hissasi kamayib boradi. Bu vaqtda bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi.

Borgan sari tashqi tarbiyaviy omillarning ta'siri kamayadi. Biroq boshqa bir jarayon - o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o'z shaxsini mukammallashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi. Bizning modelga binoan, insonning o'z-o'zini tarbiyalashi ehrom bunyod etish bilan barobardir. Shuninguchun o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho'ziladi.

Tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash vaboshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy atamalar, OAVlari, maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar) o'zaro ijobiy ta'siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayoni

sodir bo'ldi. Ijtimoiy muhitning ta'siri qanchalik ahamiyatli va sarmazmunbo'lsa, bola unda shuncha erkin va mustaqil bo'ladi.

Bolaning ijtimoiylashuvi uning jismoniy va ruhiy rivojlanishining xususiyatlari sababli murakkablashishi, yoki ijtimoiy me'yyor va qadriyatlarni bola tomonidan o'zlashtirilishida qandaydir sabablar tufayli muhitning salbiy ta'siri oqibatida noto'g'ri yo'nalishda borishi mumkin. Buning natijasida bola me'yyoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda qolib, maxsus yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni, avvalo, tarbiya orqali amalga oshiriladi. Biroq buning uchun har bir toifadagi bolalarning ijobiy jihatlarini faollashtiruvchi tarbiya metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.

Umuman olganda, tarbiyachi va mutaxassislarining vazifasi qiyin vaziyatlarda turgan bolaning ijtimoiy moslashuviga qaratilgan bo'lib, u jamiyatda qabul qilingan qonun va me'yyorlarga faol ko'nikishi yoki salbiy omillarning oqibatlarini yengishi kerak bo'ladi.

Agar ijtimoiy muhit sifatlarining shakllanmaganligi darajasi bolaga ijtimoiy muhitga ko'nikishga xalaqit beradigan darajada ko'proq bo'lsa, bolaning ijtimoiy moslasha olmaslik holati sodir bo'ldi. Bunday hollarda bola tomonidan yo'qotilgan ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni tiklashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Shunday qilib, bolaning jamiyatda o'sishi va rivojlanishi jarayonida uning ijtimoiylashuvi sodir bo'ladi. Agar bu jarayon sodir bo'lmasa, uning aksi ro'y beradi. Bunday holatda esa bolaning ijtimoiy rehabilitatsiyasiga ehtiyoj tug'iladi.

1.2. Shaxs ijtimoiylashuvida oila, maktab, mahallaning o‘rni.

Bugungi kunda ta’lim va tarbiya jarayonini olib boruvchi tashkillashtiruvchi ishtirokchilardan bo‘lgan eng avvalo oila so‘ng maktab va mahalla va nodavlat tizimlaridan barkamol “shaxs” larni shakllantirish talab etiladi. Shaxs tarbiyasi o‘z navbatida, uning jamiyat hayoti bilan muhim aloqadorligini nazarda tutadi.

Shaxs- jamiyat mahsuli bo‘lib u inson ijtimoiylashuv jarayoni bilan uzviy bog‘liq pedagogik xodisadir. Bola ijtimoiylashuvini tashkil qilmasdan turib shaxs shakllanishini ta’minlab bo‘lmaydi. Demak, inson tarbiyasida uni shaxs darajasiga olib kelishda ijtimoiylashuv juda katta o‘rin tutadi. Bola ijtimoiylashuvi esa eng avvalo, oilada kechadi. Mana shu inson ijtimoiylashuvi jarayonida ilk eng muhim va tabiiy bog‘in sifatida oilaning pedagogik o‘rni hamda ahamiyati betakror hisoblanadi.

Oila va uning o‘ziga xosliklari. Oila shaxs tarbiyasida, boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda, eng muhim vazifalarni bajaradi. Chunki aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy me’yorlar shakllanadi. Oila omili insonga bugun umri davomida ta’sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy maqomlarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o‘z-o‘zini belgilab olishiga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshirishiga yordam beradi.

“Oilaviy munosabatlar - oliy qadriyat” deb hisoblangan bizning Respublikamizda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda baland bo‘lib, u o‘z mavqiyini hozirgacha saqlab kelmoqda. O‘zbek oilasida zaruriy tarbiyaviy omil vako‘nikmalar avloddan- avlodga o‘tib kelmoqda. Ko‘p bolali o‘zbek oilalarida patriarxal tartibning saqlanishi oiladagi munosabatlarning barqarorligini ta’minlagan. Biroq bugungi kunda oila inqirozi ko‘pgina oilalar, shu jumladan, o‘zbek oilalariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Oila a’zolari sonining qisqarishi, avlodlarning uzoqlashuvi muammosining kuchayishi munosabati bilan, oilaviy munosabatlarni shakllantirish masalasi borgan sari muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Oila bugungi kunda yuksak malakali psixolog, ijtimoiy pedagoglar yordamiga muhtoj bo‘lib qolgan.

Oila ikki yo‘nalishda mavjud bo‘ladi: kichik ijtimoiy guruh. sifatida va ijtimoiy institut sifatida. Birinchi holatda, oila qarindoshlik asosida tuzulgan va birga yashash

bilan birlashtirilgan hamjamiyat bo'lsa, ikkinchi holatda esa, insonlarning kundalik hayoti kechadigan ijtimoiy institutdir.

Jamiyatda oila bir nechta funksiyalarni bajaradi:

Reproduktiv funksiya. Bu funksiya naslning davom ettirish bilan bog'liq. Hozirgi kunda O'zbekistonda serfarzand oilalarning mavjudligi bilan bir qatorda, oila a'zolari sonining qisqarishi ham kuzatilmoqda. Bu hodisalar, asosan, moddiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, ma'naviy inqiroz, yosh oilalarning ota-ona uyidan ajralib chiqishi, tibbiy xizmatning darajasi, ekologiya inson salomatligiga ta'siri bilan izohlanadi.

Iqtisodiy funksiya. Ma'lum bir oila a'zolari tomonidan boshqalari uchun moddiy mablag'lartopilishi, voyaga yetmaganlar vaqariyatlarni moddiy ta'minlash, pul mablag'larini to'plash iqtisodiy funksiyaning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy bozor munosabatlari mulk to'plash, mulkka ega bo'lish, meros masalalarida oilaning iqtisodiy vazifasi faollashuvini talab qiladi.

Ijtimoiylashuv funksiyasi. Oila bola shakllanishiga ta'sir qiluvchi birinchi va asosiy ijtimoiy guruh hisoblanadi. Oilada ota-ona va bolalarning tabiiy-biologik hamda ijtimoiy aloqalari uzviy bog'lanib keladi. Oila mikromuhit sifatida bolaning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oilaning vazifasi bolani asta-sekinlik bilan jamiyatga tayyorlashdir. Oilada insonga ta'lim va tarbiya beriladi, uning aqliy, ijodiy qobiliyatlarining rivoji sodir bo'ladi. Aynan oilada bola mehnat qilishgava mustaqillikka o'rganadi.

Xo'jalik-maishiy funksiya. Oila jamiyatning asosiy va doimiy xo'jalik negizidir. Unda oila a'zolarining jismoniy holati bir maromda ushlab turiladi kasallar vaqariyalarga g'amxo'rlik qilinadi. Ilm-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan bizning asrimizda oilaning kundalik yumushlari (ovqat pishirish, uy tozalash, kir yuvish, kiyim tikish va boshqa) maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari zimmasiga yuklatilmoqda.

Tarbiyaviy funksiya. Biz bu funksiyani alohida ajratib ko'rsatamiz, chunki u bolaning ilk ijtimoiylashuvi jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bola shakllanishiga atmosfera va iqlimning ham ta'siri bor. Tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri shaxsiy namunadir. Yuqorida, "Tarbiya ijtimoiy institut sifatida" deb nomlangan

qismda, tarbiyaning jamiyat va davlat taraqqiyotidagi o'rnini to'g'risida to'liq to'xtab o'tgan edik.

Oilaning ijtimoiy maqomi. Oilaning jamiyatda moslashuvining ko'rsatkichi uning ijtimoiy maqomi, ya'ni oilaning bugungi kundagi holati hisoblanadi. Oila maqomi oila a'zolarining individual tavsiflari majmuasidan shakllanadi. Oilaning to'rtta ijtimoiy maqomi mavjuddir. Ular: ijtimoiy-itsisodiy, ijtimoiy-ruhiy, ijtimoiy- madaniy hamda vaziyatli-rolli maqomlardir.

Ijtimoiy-iqtisodiy maqom oilaning moddiy holatini belgilaydi. Bu oila daromadlari, yashash ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi moddiy ta'minlanganlikdir. Daromadlar yuqori, o'rta va past bo'lishi mumkin.

Yuqori daromad va yashash sharoitlari darajasi nafaqat maishiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini beradi, balki boshqa xizmatlardan foydalanishga ham zamin yaratadi.

O'rta daromad va yashash sharoitlari, minimal ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bir qatorda, dam olish, qo'shimcha ta'lim va boshqa xizmatlardan foydalanishga ham zamin yaratadi.

Past daromad va yashash sharoitlari darajasi belgilangan me'yorlardan past, ovqat, kiyim-kechak yashash joyi to'lovi kabi masalalarda ,ham muammo chiqib turadi.

Psixologik maqom - bu oiladagi psixologik iqlim. Yaxshi iqlim emotsional yaxshilik hamkorlik teng huquqlilik bilan tavsiflanadi. Yomon, noxush iqlim esa nizo-janjallar ko'pligida, emotsional noqulayliklarda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy maqom - ta'lim darajasi, yurish-turish madaniyati, an'analarni saqlab qolish va o'tkazish vazifasi, qiziqishlarning keng doirasi, rivojlangan ma'naviy ehtiyojlar, dam olish va mayishiy hayotning birgalikdagi shakllari bilan tavsiflanadi.

Oilaning ijtimoiy moslashuvi bo'yicha tadqiqot o'tkazish uchun ijtimoiy pedagogika va uning xususiyatlarini bilish, ularga baho berish lozim. A.K. Munavvarovning fikricha, oilaning tarbiyaviy funksiyasining darajasi uning uch yo'nalishda bo'luvchi tuzilmasiga bog'liq.

Bu yo'nalishlar demografik: ko'p bolalilik kam bolalilik ikki yoki uch avlodning birgalikda yashashi, ota-onalarning ikkalasining ham bo'lishi, oila a'zolarining ta'lim

olganliklari darajasi, bolalarni tarbiyalashda vazifalarni taqsimlash. oila tarbiyasining o'ziga xosligi, shuningdek oilaning muhim xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Oila tipologiyasi ijtimoiy moslashuv darajasi bo'yicha farq qiluvchi to'rtta kategoriya asosida shakllanadi:

Tinch, baxtli oilalar o'z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshiradilar, o'z bolalarining ehtiyojlariga tez ko'nikadilar. Muammo paydo bo'lib kelsa, ularga bir karra yordam ko'rsatish kifoya.

Xavfi bor oilalarda adaptativ qobiliyatlar birmuncha pastroq. Ular bola tarbiyasini qiyinchilik bilan eplaydilar va ijtimoiy pedagog yordami hamda nazoratiga ehtiyoj sezadilar.

Notinch oilalar xayotiy faoliyatning biror-bir sohasida past ijtimoiy maqomga ega bo'lib, ular o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar. Bunday oilalarning adaptativ imkoniyatlari past bo'lib, ularda bola tarbiyasi jarayoni katta qiyinchiliklar bilan sekin kechadi. Bu oila turi uchun ijtimoiy pedagogning faol yordami zarur. Muammolari harakteridan kelib chiqib, pedagog ularga pedagogik yoki psixologik yordamlar ko'rsatadi.

O'smir psixologiyasining shakllantishida aka, opalar, uka-singillar o'rtasida konstruktiv va destruktiv o'zaro munosabatlar ta'siri ham mavjudligini olimlar ta'kidlaganlar. Antonov. A. T. B. Andireva, E. G. G'oziyev, G'. B. Shoumarov va boshqalar.

Insonning muhim xususiyatlaridan biri uning ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Inson o'zining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida o'zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Insonning ijtimoiylashuvi sun'iy harakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o'rtasidagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlarda holi bo'lsa, o'zidagi yovuzlik va hayvoniy tabiatdan xalos bo'la olmaydi. Insondagi bu fazilatni Abu Nasr Farobiy quyidagicha ifodalaydi: "har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi, shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvi orqaligina odam o'z tabiati

bo'yicha intilgan yetuklikka erishishi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka zarur bo'lgan, narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnamshdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi".²

Maktab yoshidagi bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish, maktabgachata'lim muassasalaridagi ijtimoiy pedagogik ishdan tubdan farq qiladi. Mazkur faoliyat o'quvchilarning doimiy kamol topishlari va ta'lim olishlari bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilarning ta'lim muassasasiga muvafaqqyatli moslashuvidan, ularni jamiyatning faol a'zosiga aylanishigacha bo'lgan murakkab davrni o'z ichiga oladi. So'ngi yillarda Respublikamizda maktab o'quvchilari bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish yanada keng rivojlanmoqda. U qisman moziy tajribasi, qisman zamonaviy pedagogik tibbiy, psixologik yuridik faoliyat turlariga tayanib ish olib bormoqda. Ayni vaqtda pedagogik jamoalarda nafaqat ta'lim-tarbiya masalalari, balki o'quvchining boshqa bir qator ijtimoiy muammolari ham halqilinmoqda.

Davlatimizdagi o'zgarishlar mavjud ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Chunki ta'lim tizimida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar aks etmasligi mumkin emas. "Ta'lim to'g'risidagi Qonun va " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" dan kelib chiqib, umumta'lim maktabi o'zining o'quv, tarbiyaviy va ijtimoiy vazifalarini ko'rib chiqib, birinchi o'ringa quyidagi ijtimoiy vazifalarni qo'yarmoqda:

- ta'limni bolalar va o'smirlar manfaati asosida tashkil qilish;
- maktabda tarbiya ishini ta'lim bilan teng yuritish;
- maktab faoliyatini qayta yo'naltirish;
- maktab ishini takomillashtirish;
- o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, turli to'garaklar tashkil etish.

Maktabning asosiy ijtimoiy vazifasi bolaning ta'lim- tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish hisoblanadi. Hozirgi paytda bolalarning ijtimoiy pedagogik himoyasi quyidagicha amalga oshirilmoqda:

² Abu Nasir Farobiy Fozil odamlar shahri-T., A.Qodiriy nomidagi xalq meros nashryoti.1993. 186-bet.

Maktab ma'muriyati tomonidan ham ta'minlangan oilalar farzandlariga moddiy yordam berilmoqda hamda bepul ovqatlanish tashkil qilinmoqda. Sinf rahbarlari tomonidan bolaning oiladagi holatini o'rganilib, "tarbiyasi og'ir bolalar" bilan alohida mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

Maktab psixologi bola qobiliyatlari va qiziqishlarini o'rganadi, ota-onalar va bolalarga maslahat beradi.

Maktabda mavjud bo'lgan sog'liqni saqlash xizmati maktab o'quvchilarini tibbiy ko'rikdano'tkazadi, jismoniy tarbiya guruhlarini tuzadi, kuchsiz bolalarga maxsus ovqatlanish tashkil etiladi hamda karantin sinflarini nazorat qiladi.

Maktabda ijtimoiy ishga maktab direktori o'rinbosarlaridan biri rahbarlik qilib, maktabning ta'lim muassasalari, turli davlat tashkilotlari bilan aloqasiga katta e'ibor qaratadi.

Ota-onalar qo'mitasi ham o'z o'rnida tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashga yordam beradi. Turli davlatlarda ijtimoiy pedagog ishiga ikki xil yondashuv mavjud: u maktab bilan hamkorlik qiladi yoki maktabning sadoqatli xodimi hisoblanadi.

Maktab bilan hamkorlik jarayonida ijtimoiy pedagog tez- tez maktabga borib turadi, ota-onalar va o'quvchilarning o'zaro munosabtlarining yaxshilanishiga yordam beradi, darsqoldirish sabablarini aniqlaydi. U bolalar bilan qo'pol munosabatda bo'lgan oilalarni hamda jismoniy va ruhiy nuqsoni bor bolalarni aniqlaydi. Ijtimoiy pedagog bola yoki oilaga yordam berish maqsadida bolaning uzoq davom etgan kasalligi sabablarini surishtiradi, o'qishda ortda qolmasligi uchun u bilan uyda va kasalxonada alohida mashg'ulotlarni tashkil qiladi. Bundan tashqari, bola tarbiyasidagi muammolarni hal qilish uchun huquqshunos, shifokor, militsiya xodimlari xizmatidan foydalanadi. Ko'pgina xarbiy Yevropa davlatlarida ijtimoiy pedagog maktabning shtatli xodimi bo'lib, ijtimoiy yordamga muxtoj bolalarni aniqlaydi. Bu bolalar maktab o'quv dasturini o'zlashtirishga qobiliyati yetmaydigan bolalardir. Ular maktab yoki oilada ruhiy tushkunlikni boshdan kechirishgan bo'lishi ham mumkin. Odatda, bu toifadagi bolalar voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya ro'yxatidaturishadi. Ba'zan bolalar va

ularning atrofdagilar bilan munosabatlarini oydinlashtirishning o'ziham yetarlicha yordam berishi mumkin.

Ijtimoiy pedagog o'quvchining maktabdan tashqari vaqti tashkillashtirib, o'z tarbiyaviy ishini olib borishda ota-onalar bilan hamkorlik qiladi. Hamkorlik yuzasidan seksiya, klublar, turdi mehnat va turistik bo'linmalar uyushtiriladi. Ijtimoiy pedagog pedagogik jamoaning tarbiyasi og'ir bolalar bilan ish tashkil qilishi va olib borishini rejalashtiradi va tartibga soladi. U doimiy tarzda sinflardagi psixologik muhitni monitoring qiladi va natijalar yuzasidan maktab pedagogik jamoasiga axborot berib turadi. Aynan shu holat maktabda ijtimoiy ish olib borishning rejasini da muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy pedagog maktabdan haydalgan yoki ixtiyoriy ravishda boshqa maktabga o'tgan bolalarga alohida e'tibor qaratishi, ularni boshqa maktabga joylashtirishga, yangi jamoaga ko'nikishishlariga yordam ko'rsatishi kerak. Ijtimoiy pedagog o'qish vaqtida noqonuniy ishlab turgan bolalarni aniqlaydi, muammolarini o'rganadi va ularning o'qishlari masalasini hal qiladi. U ko'p bolali oilalarning barcha imtiyozlardan foydalanishlarini, bolalarning reabilitatsion markazlarga qatnashganlarni nazorat qila oladi, ijtimoiy yordamga muxtoj bolalarga e'tibor beradi, tarbiyasi og'ir bolalarni tarbiyalashda oilalarga yordamlashadi.

O'zbek mintalitetining muhim xususiyatlaridan maxsus ijtimoiy tuzulma mahallaning mavjudligidir. Toshkent shahrida XIX asrdan boshlab mahallalar mavjud. Ularning tashkil topishi va faoliyat yuritishi, bir tomondan, milliy-psixologik xususiyatlarga, boshqa tomondan esa axoliga yoshligidanoq ijtimoiy munosabatlarga jalb bo'lishlariga imkon yaratish bilan bog'liqdir. Boshqacha aytganda, mahalla mikrotsizm bo'lib, unda axloqiy tamoyil vaqoidalarga amal qilish, marosim va jamoat faoliyatining boshqa turlarida ishtirok etish orqali shaxsning yanada kattaroq hamjamiyatda ijtimoiylashuvi usullari shakllanadi.

Mahallaning demokratiyalashuv, ijtimoiylashuv, insoniylashuv va mukammallashuv jarayonlariga faol ta'sir qila olishini Prezident I. A. Karimov quyidagicha ta'kidlab o'tgan: "Mahalla- bizning jamiyat hayotida insoniy tarbiya va

kelishuvning o'zgarmas manbasi. Tarixning guvohlik berishicha bizning davlat daryolar bo'yida paydo bo'lgan. Tabiat kattaklizmalari, tashqi hayvonlarni birgalikda yechish, keyingi kunlarda qo'llab-quvvatlash bizning ajdodlarimizni jamoa bo'lib yashashga o'rgatgan.

Mehribonlik raxmdillik kabi insoniy xislatlar aynan mahallada shakllanadi. Bu ma'noda mahallani o'z-o'zini boshqarish maktabi, kerak bo'lsa, demokratiya maktabi desa bo'ladi".

Ijtimoiylashuv nafaqat shaxsning jamiyatga qulayliklarga ega bo'lishini, balki shaxsning muayyan axloqiy va etnik qoidalarni egallashini ham nazarda tutadi. Shuborada mahalla ijtimoiylashuvining muhim mexanizmi hisoblanadi. Chunki unda:

- har bir inson amal qilishi kerak bo'lgan muayyan axloqiy qonunlar ishlab turadi;
- muomala bir qator axloqiy tamoyillarga asoslanadi;
- hokimiyatga ishonch va xizmat, shaxsiy namuna kuchi, kattalarga hurmat, bolalarga g'amxo'rlik;
- axloq va jamoatchilik tarbiyasi amaliy faoliyatga kiritish orqali amalga oshiriladi;
- ommaviy ong qadriyatlari mahalladan oilaga va shaxsga uzatiladi;
- aloxida shaxs hayotining asosiy bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan kuzatuvda bo'ladi.

Aloxida tarixiy davrlarda an'anaviy hayotiy me'yorlarning buzilishiga urinishlar amalga oshirilganligiga qaramay mahalla bunga qarshilik ko'rsatdi va an'ana, odatlarning saqlanib qolishiga yordam berdi.

Mahalaning ijtimoiy o'rni uni doimo jiddiy ijtimoiy o'zgarishlarga o'z munosabatini bildirganida va oliy insoniy hamda axloqiy tamoyillarga tayanishida namoyon bo'ladi. Masalan, XX asrniig 20 - 30 yillarida mahallada ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga qushilishi, savodsizlikni bartaraf etish, aholining madaniy dunyo qarashini kengaytirish qo'llab- quvvatlangan.

Jahon urush yillari (1941 - 1945 yillar) mahalla aholisining Rossiya, Ukraina, Belorusiyadan evakuatsiya qilinganlarni qabul qilganliklari hammaga ma'lum. Maxalliy axoli vakillari ko'chib kelganlarga o'z uylarining bir qismini berishgan, moddiy yordam ko'rsatishgan. Mahalla jamoalari nihoyatda yuqori axloqiy va ijtimoiy salohiyatga ega bo'lib, ular odamlarda yaxshi niyatlilik o'zaro hurmat, o'zaro tushunish kabi xislatlarni tarbiyalashadi.

Mahalla an'analarni saqlab qolish va ularni yoshlarga yetkazish, jamiyatni demokratiyalashtirishining ilk davrlarida milliy qadriyatlarning tiklanishiga katta yordam bergan. Yangi sharoitlarda mahalla o'z-o'zini boshqarish organi sifatida yangi mazmun va ahamiyatga ega bo'ldi. Bu O'zbekistan Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ham alohida ta'kidlangan.

Mahalla maktablarida tahsil olayotgan yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy va ma'naviy qiyofalari ham ancha o'zgarib qoldi. Ularning aksariyati muassasa, maktablarda tashkiliy ish tajribasiga egalar. Oqsoqollarning aksariyat qismi savodxon, ularning ba'zilari ilmiy darajaga egadirlar. Mahalla insonlarning axloqiy birlashuvi markazi bo'lishni davom ettirmoqda. Bu avvalambor, mahalla qo'mitalari faoliyatlarining asosiy yo'nalishlaridan biri-ijtimoiy mehnatni, shu jumladan, obodonlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilishda namoyon bo'ladi. Bunday ishlarning asosiy turlari: ariqlarni tozalash, daraxtlarni kesish, axlatni chiqarish kabi hasharlardir. Bundan tadbirlar, asosan, Navro'z, Ramazon, Qurbon hayitlari, Mustaqillik kunlari oldidan o'tkaziladi. Hashar yo'li bilan uylar, klublar, oshxona, masjidlar bunyod etilmoqda.

Uning muhim an'analardan biri mehr-muruvvat ko'rsatish u quyidagi ko'rinishi namoyon bo'ladi: jamoaning g'amxo'rliqi, qo'shnilarining kasal, keksa va mintqalarga yordam ko'rsatishi;

— o'ziga to'q kishilarning kam ta'minlangan qarindoshlariga va qo'shnilariga moddiy yordam bershli;

— oqsoqol va mahalla qo'mitasi tomonidan boquvchisini yo'qotgan va qariyalarga yordam ko'rsatishi va boshqalar.

Jamoda yordam ko'rsatish an'anasi hozir yangi shakllariga ega bo'ldi va xokimiyatlar hamda mahallaqo'mitalarining asosiy vazifasiga aylandi. Respublika Prezidentining (1994 yil 23 avgust) "Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari" haqidagi farmoni bilan aholini ijtimoiy himoya qilishning yangi turi oriy qilindi: kam ta'minlangan oilalarga har oy ko'rsatiladigan moddiy yordam.

Bu yordamning yangiligi shundaki, oilalar taqsimotini mahallalarning o'zi hal qiladi. Ana shu maqsadda 1999 yilning yanvar oyida O'zbekistan Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining axolining ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash" to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi hamda 2002 yilning yanvarida esa "Aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab- quvvatlashining 2002 - 2003 yillarda mo'ljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari tuug'risidagi qarori talablari amaliyotga keng joriy etildi.

Hozirgi kunda mahalla jamiyatda etnomadaniy qadriyatlarni tiklash jarayonida muhim rol o'ynamoqda. Nikoh janoza aqiqa to'yi, sunnat to'yi kabi marosimlar o'tkazilmoqda.

Bozor munosabatlarini shakllantirishning murakkab holatida mahallaning ijtimoiylashtirish roli oshib ketdi. Bu avvalambor, oila qadriyatlarini saqlab qolishda namoyon bo'ldi. Nizoli holatlar paydo bo'lganda mahalla oqsoqollari oila vakillari bilan suhbat o'tkazadi va, odatda, vaziyatga oydinlik kiritadi. Bundan tashqari mahalla ishsizlarni ishga joylashishlariga, militsiya xodimlariga esa jamoat tartibini saqlashda yordam beradi, xizmatga chaqirilganlar bilan tushuntirish ishlari olib boradi.

Avvalgiday, jamoa o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutmoqda. Hozirda mahalla maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablar bilan yaqin hamkorlik olib borib, ularga binolarni ta'mirlashda, tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirish ishlarida yordam ko'rsatadi. Mahallaqo'mitasi majlislarida maktab intizomining jiddiy bo'zilishlari ham ko'ra chiqiladi. Yoshlarga ta'sir ko'rsatishning bu rasmiy tarmoqlaridan tashqari, jamoani nazorat qilishning an'anaviy usuli ham saqlanib qolgan. har qanday

mahallada boy hayotiy tajribaga ega odamlar mavjud. Ularning asosiy vazifasi aholining an'anaviy axloq-odob qoidalariga rioya qilishlarini, bolalarning ko'chadagi yurish-turishini nazorat qilishdir. Ular har qanday odamga tanbehberishlari mumkin, biroq bu ishni doimo ularning hurmatini saqlagan holda amalga oshiradilar. Ota-onalarning bunday munosabatni qadrlashi taxsinga sazovor. Shuning uchun "mahalla-sening ham otang, ham onang" degan maqol mavjud. Boshqa sohalarda namoyon bo'ladigan milliy tiklanish, xalqning milliy o'zligini anglash jarayonini faollashtirish orqali amalga oshiriladi. Sobiq Sovet ittifoqi davrida bu kabi an'analar to'liq yo'qolib ketmagan, balki ayrim oilalarda o'ziga xos tarzda saqlanib qolgan va yoshlarga berilgan. Bu, ayniqsa, xayotning an'anaviy turmush tarzini saqlab kelayotgan eski shahar mahallalarida yashovchilar orasida yaqqol namoyon bo'lgan. Mahalla fuqarolarining yuqori savodxonlik va madaniy darajasi (yosh va o'rta avlod, o'rta yoki oliy ma'lumotga ega) badiiy ijodning keng rivojlanishi, marosimlar o'tkazishda ma'naviy o'z-o'zini ifodalashning keng imkoniyatlarini ko'zda tutadi.

Shuni ta'kidlash joizki, etnik an'analar va marosimlarning tiklanishida, avvalo, oiladagi katta avlod, shuningdek ommaviy axborot nositllari, ayniqsa, televideniye katta o'rin tutadi.

Hozirgi kunda mahallaning ahamiyati oshib bormoqda. Biroq yoshlar tarbiyasida muammolar kam emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarning axloqiy tarbiyasiga to'sqinlik qiladigan bir qancha holatlar ham yuzaga kelmoqda. Yoshlarning savdo-sotiq qilishga va boshqa tijorat ishlariga sho'ng'ib ketishi ularning o'qishga va bilim olishga bo'lgan intilishlariga, ijtimoiy munosabatlarga kirishishlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bazi xollarda muallimlar o'quvchilarni to'liq tarbiyalash imkoniyatidan mahrumdirlar. Buning sababi, ularning boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanishlaridadir.

Jamiyatni demokratiyalashtirishning mazkur bosqichida yoshlar faoliyat turini tanlashda keng imkoniyatlarga ega bo'lishdi. Biroq ular bu imkoniyatlardan to'liq foydalana olmayabdilar. So'ngi yillarda yoshlar orasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish susayib bormoqda. Dinning ta'siri kuchaydi, natijada yoshlar mafkuraviy sohada noto'g'ri, ekstremistik yo'nalishlarga kirib qoldilar. Mahalla tarbiyasining an'anaviy

usullaridan foydalanib yosh avlod bilan yanada faol ish olib borish, ularda hozirgi jamiyat talablariga muvofiq keladigan dunyo qarash va axloqiy tamoyillarni hosil qilish kerak.

Mahalla azaldan nafaqat o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisi nazaryasini bajargan, balki ularda ijtimoiy fikr shakllantirgan ham qo'shnilar o'rtasidagi barcha nizoli holatlar. Shuningdek oilaviy janjallar mahalla qo'mitalari faollari tomonidan muhokama qilinadi. Bular orasida ko'pincha qaynona-kelin, yosh kelin-kuyovlar orasidagi janjallar ko'p uchraydi. Bunaqa holatlarda xotin-qizlar qo'mitasi suhbato'tkazadi. Agar ikki tomonni yarashtirib bo'lmasa, bu holat bilan mahalla qo'mitasi shug'illanadi. Odatda, o'sha joyning o'zida muammo hal qilinadi. Shuning uchun ajralishlar soni ko'p emas. So'ngi paytlarda uy ishlari bilan bandayollar va yosh oilalar bilan ishlash faollashdi, ularni kasb-hunarlariga o'rgatish ishlari olib borilmoqda. Har bir qo'mitalar muddatli harbiy xizmatga yigitlarni tanlab olish jarayonida ham mahallalarning faol yordamiga tayanishadi.

1999 yilning 14 aprelida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari haqida"gi Qonuni yangi taxrirda qabul qilindi. Unda yana bir marta fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishi asosida tarixiy taraqqiyot xususiyatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlar, mahalliy odatni va ana'nalar yotishi ta'kidlandi. Bundan tashqari, ushbu qonunda mahallaning vazifalari aniq qilib belgilab qo'yilgan. Yuqorida sanab o'tilgan vazifalardan tashqari, mahallaga yangi vazifalar; tijorat va maishiy xizmat ko'rsatishni, hududning tozalik holatini, aholidan soliqlarni o'z vaqtida topshirilishini nazorat qilish ham belgilangan. Davlat mahallaga avval mahalliy kengashlar bajargan vazifalarni yuklamoqda. Bu esa mahalla qo'mitalari davlat tuzulmalariga aylanayotganligidan dalolat beradi.

Mahallaning ijtimoiy hayotida so'ngi o'n yillarda katta o'zgarishlarni boshdan kechirgan ko'pchilik munosabatlari muhimo'rin tutmoqda. Oilaviy muxitning individuallashuv jarayoni jadal sur'atlar bilan shakllanmoqda. Shu bilan birga, yaqin qo'shnichilik munosabatlari o'zbek oilasining qadriyatlaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu, avvalombor, xo'jalik ishlarida, bolalar tarbiyasida, moddiy qiyinchiliklar yuz bergan

vaziyatlarda yordam ko'rsatishda o'z aksini topmoqda. Buning asosida esa ma'naviy yaqinlik paydo bo'ladi kundalik axborot almashinuvi, mahalladagi muammolari muxokamasi, birgalikda xordiq chiqarish va xokazo. Shu tarzda mahalladagi eng kichik guruhlardan biri -qo'shnichilik guruhi paydo bo'ladi.

Mana shu guruh bilan bir qatorda qarindoshlik aloqalari ham mavjud.qarindoshlik munosabatlari o'zbeklarning oilaviy qadriyatlari tizimida xali ham birinchi o'rinda turadi.

O'zbeklarning ijtimoiy xayotidagi muhim xodisalardan biri erkaklar birlashmalaridan gap gashtak, ziyofat bo'lib, ularning maqsadi bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishdir, har bir yosh guruhi o'zining o'zaro munosabat shaklini tuzishga harakat qilgan.

Qadimda Toshkentdato'qima va ommaviy tusga ega bo'lgan. Ular hosil yig'imerimi yakunlangan kuzgi-qishki davrda o'tkazilgan.

To'qimada erkaklar har kuni bir-birlarining uyida to'planishgan vahar kim qulidan kelganini olib kelgan. Buning Hammasi "umumiy qozon"ga solingan.O'zlari taom tayyorlaganlar, o'zlari uy yig'ishtirganlar, namoz o'qiganlar, o'zaro fikr almashganlar, turli mavzularda suxbatlashganlar.

To'qimadan farqli ularoq har xaftada bir marta, odatda, juma kunlari ishtirokchilardan birining uyida gap, har bir gapda saylangan rahbar va ishtirok etish qoidalari mavjud bo'lgan. Qoidabuzarlar gapdan chetlashtirilgan. Ziyofat harajatlarini mezbbon ko'targan.

XX asrning 30-yillarida namoz o'qigan va diniy adabiyotlarni mutolaa qilgan odamlarni qamash boshlanganligi sababli gaplarda to'planish xavfli bo'lib qolgan. Ikkinchi jaxon urushi yillaridagi moddiy qiyinchiliklar ham gaplar o'tkazilmasligiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.Faqatgina XX asrning 50-60 yillariga kelib gaplar asta-sekin tiklana boshladi.Biroq bu gaplar ilgarigilardan biroz farqqilar edi. Avvalo endi ayollar orasida hamgap tashkillashtirila boshladi. Hozirda erkaklarnikidan ko'ra ayollarning gaplari ko'proq tarqalgan.Oilaviy gaplar, avvalambor, sinfdoshlar, kursdoshlar orasidagigaplar, shuningdek kasbiy gaplar ham ommaviylashib bormoqda.

Gaplarning ijobiy xususiyatlari bilan birgalikda ularda salbiy jihatlar ham mavjud bo'lib, bular isrofgarchilik va ichkilik bozlik bilan bog'liq. Bundan tashqari, kitoblar mutolaasi hamda mazmunli suxbatlar tan olinmay qolgan holatlar ham kuzatilmoqda.

Avvalgilaridan farqli ravishda hozirgi gaplar yil davomida o'tkaziladi. To'y paytida gap ishtirokchilari to'y egasiga yordam ko'rsatishadi. Ular ulfatlarini qiyin kunlarda qo'llab-quvvatlashadi. Har bir gapning o'ziga xos daragi, nomi va shuhrati bor. Insonni, ayniqsa, yoshlarni qaysi gapga a'zo bo'lganidan u qanaqa tarbiya olganini aniqlasa bo'ladi.

Ayollar orasidagi gaplar XX asrning 60 - 70 yillarida keng rivojlana boshladi. Bu mahalladagi qo'shnilarning birlashmasi bo'lib, bunda ishtirokchining yoshi inobatga olingan bo'lib, har bir mahallada o'rta yoshli vayosh ayollar (asosan. kelinlar) birlashmalari mavjud bo'lgan.

Yaqin qarindoshlar orasidagi gaplar ham keng tarqala boshladi. Odatda, bunda yoshi eng ulug' ishtirokchi rahbar bo'ladi. Bunday gaplarga ayollar farzandlarini ham olib kelishlari mumkin.

So'ngi vaqtlarda oilaviy gaplar paydo bo'ldi. Ularda erkaklar o'z xotinlari bilan birgalikda ishtirok etishadi. Bu gaplar sinfdoshlar yoki kursdoshlarning gaplari sifatida boshlanib, keyinchalik uylangan yigitlar gapga oilaviy kela boshlaydilar. Bu gaplar umumiy qoidalar asosida mavjud bo'lib, birmuncha kam uchraydi.

O'rtava katta avlod ayollari o'rtasida to'planishning boshqa shakllari ham mavjud bo'lib, bular mushkulkushod va mavlud. Ushbu diniy marosimlar So'ngi yillarda Toshkent mahallalarida ochiq-oydin o'tkazilmoqda. Mavjud yoki mushkulkushodga to'plangan ayollar diniy marosimlarda ishtirok etish, balki birga muloqotga kirishish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.

Mahallahozirda zamonaviy jamiyat xayotining ijtimoiy tizimida o'z o'rnini topgan. Milliy va etnik an'analarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston siyosati bu an'anaviy institutning yanada samarali faoliyat yuritishiga yangi zaminlar yaratdi.

I Bob. Ijtimoiylashuv jarayonida o'zbek xalq pedagogikasining ahamiyati

1.1. O'zbek xalq pedagogikasining ijtimoiy xususiyatlari

Ajdodlar tajribasini o'rganish zamonaviy pedagogikafanining asosiy vazifalaridan biridir. Biroq tarbiyaning milliy xususiyatlariga murojaat qilish madaniy jihatdan o'z qobig'iga o'ralib qolishga olib kelmasligi kerak. Zamonaviy pedagogika fanining maqsadi milliy xususiyatlar asosida fanning zamonaviy muammolarini yechishga yordam beruvchi, uning rivojiga o'z hissasini qo'shuvchi kuchlarni topishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Hozirda dunyoning turli davlatlaridagi xalqlarning madaniy qarashlari vao'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratsak madaniyat soxasidagi yutuqlar mavjud muammolarni xal etishda juda katta o'rin tutadi. O'sib kelayotgan avlodni hayotga tayyorlashning ko'p asrlik tajribasi yordamida yoshlarning zamonaviy bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatga tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Qanday qilib xalqning o'z milliy qiyofasi.madaniy xususiyatlarini tiklamasdan turib bugungi kunning muammolarini hal qilish mumkin? Shubhasiz moziy tajribasida xalq pedagogikasida ta'lim va tarbiya jarayonlarida qo'llash mumkin bo'lganko'p narsa bor. Xalqp pedagogikasi shaxsga ijtimoiy xususiyatlarni shakllantirish uchun lozim bo'lganpedagogikbilim, ko'nikma va malakalar, ta'lim-tarbiya berish yo'llari, vositalarining majmuasi hisoblanadi. Xalqimizning azaliy orzu umidlaridan biri yosh avlodning tarbiyasi bo'lib, bugungi kundagi ijtimoiy jarayonlarning provard maqsadi ham manashu masalaga qaratilgan

Milliy pedagogika xalqningta'lim-tarbiya masalasiga oid qarashlar, g'oyalar, an'analari asosida shakllanadi.Milliy pedagogikaningtengsiz qadriyati shuki, u birinchidan, o'zida asrlar davomida shakllangan pedagogik haqiqatlarga ega,ikkinchidan esa, hayotiy, amaliy tavsifga ega. U o'z ifodasini xalq pedagogikasining barcha g'oyalari amaliy tajribaga asoslanganligi, amaliyotda sinalgan va yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy faoliyatga qaratilganligidatopadi.

Xalq pedagogikasidagi mavjud hayotiy (maishiy, mehnat, axloqiy) va pedagogik ma'lumotlar, kuzatuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, bular muomala jarayonida ham kattalar, ham bolalar tomonidan bir xil o'zlashtiriladi. Xalq pedagogikasi tarixiy va ijtimoiy tajriba mahsuli bo'lishi bilan birga ijtimoiy axloq va ijtimoiy moslashuv malakalarining shakllanishi vositasi, omili hisoblanadi.

Xalq pedagogikasi jamiyatning pedagogik madaniyatidagi eng yaxshi qadriyatlarni mujassamlashtirgan bo'lib bu kattalarga hurmat, mehmondo'stlik mehnatsevarlik axloqlilikrostgo'ylik va boshqalar.

Xalq pedagogikasining ijtimoiy harakteri uni ko'pgina etnomadaniy hodisalar dunyoqarash, tibbiyot, etika, din, ekologiya, boshqalar bilan o'zaro munosabatida yorqin namoyon bo'lishidadir. Bu muammolar olimlartomonidan o'rganilmoqda.

O'zbek xalq pedagogikasida shaxsdunyoni hayotiy va shaxsiy tajriba orqali o'zlashtiradi, degan teran fikr mavjud. Chunki shaxs boshqalar bilan muomalaga kirar ekan, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

O'zbek xalqida shunday naql bor chaqaloq hali shaxs emas, u tom ma'nodagi inson bo'ladimi, yo'qmibu uning ota-onasi, uni o'rab turgan muhit va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatiga bog'liqshuning uchun ham xalq pedagogikasida "go'dak faqatgina avlodlar tomonidan erishilgan, ishlab chiqilgan turli ong shakllarini o'zlashtirsagina, shaxsga aylanadi". deb ta'kidlanadi. Bolaningtug'ilishi bilan tarbiyani boshlamaslik xalqhayotining rivoji, oldinga intilishiga salbiy ta'sir qiladi.Bu g'oya bir kagor xalq rivoyatlari, afsonalari, dostonlarida o'rin olgan. Agar uni zamonaviy tushunchalarda ifodallasako'zbek xalq pedagogikasining asosini bolaga g'amxo'rlik qilish, uning sog'ligi haqida qayg'urish va hayotini muhofaza qilish, uning aqliy, axloqiy estetik jismoniy va mehnat tarbiyasi uchun kattalar tomonidan ta'sir qilishning majmuasi tashkil qiladi.

O'zbek etnografiyasini o'rganish uchun turli xil hujjatlarni tahlil qilar ekanmiz, u mukammal inson modeliga mos kelishini etirof etishimiz mumkin.

Buuk ma'rifatparvar, olimlar, pedagoglar va shoirlarmiig asarlarini o'rganish inson tarbiyasi haqidagi xalq g'oyalari ularning mazmuniga singdirilganini ko'rsatadi.

Ibn Sinoning “Tadbiri manzil” kitobining “Bolalar tarbiyasi va ta’limi” bobida oila tarbiyasidan. Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida turli xaqlarning an’analaridan, al-Farobiyning “Katta musiqa kitobida xalq musiqasidan ko’p misollar mavjud. Nosir Husravning “Baxt kitobida”, ham oddiy odamlarning mehnatlari ulug’lanadi.

Xalq pedagogikasini o’rganish uchun S. R. Rajabov, A. Ismoilova, I. Obidova, S. Temurova, M. Ochilov, A. Otayeva. 3. Mirtursunov, A. Minavarov kabi o’zbek olimlari ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bu mualliflarning ishlarini birlashtirgan holda o’zbek xalq pedagogikasining quyidagi yo’nalishlarini ajratishimiz mumkin bo’ladi:

- bolaning aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasining o’zaro aloqasi asosida har tomonlama rivojlanishi g’oyasi;
- shaxsning rivojlanishida oilaviy tarbiyaning yetakchi rolini belgilash;
- xalq pedagogikasi usul va tamoyillarining xalq ijodi namunalarida mujassamlashuvi;
- ta’lim-tarbiyaning pedagogik usullarini birlashtirish;
- xalq pedagogikasining amaliy характери;
- xalq pedagogikasining o’sib kelayotgan avlodni fuqaroliq oila faoliyatiga tayyorlashdagi ijtimoiy ahamiyati.

Xalq pedagogikasi xalq og’zaki ijodi namunalari, maqol, ertak, topishmoq, ashula, doston, rivoyatlarda o’zining ifodasini topgan. Aynan shularda xalqasrlar mobaynida o’z ijtimoiy tajribasini umumlashtirgan. Ular hikmatlar shaklida pand, o’git, nasihat mazmuniga ega bo’lib xalqning ijtimoiy hayotga bo’lgan real (hayotiy) qarashlarini ifodalaydi.

O’zbek xalq pedagogikasining o’ziga xos xususiyatlaridan biri xalq og’zaki ijodi matnlarida tarbiyaning vosita, usullarining tavsifi berilganligidadir.

Hayotiy sharoitlar, oilaviy an’analar, tarbiya usullari va vositalari o’zbek xalqi orasida nihoyatda turli-tuman bo’lib, bu haqida ko’p sonli manbalar dalolat beradi. Aynan ularda biz mehnat jarayonlarini, yigit va qizlar uchun mo’ljallangan bayramlarning o’ziga xos tavsiflarini uchratamiz.

Mafkura, an'ana, odat, marosimlar avloddan-avlodga o'tib keladi. Ularda nikoh marosimi, bolaning tug'ilishi, mehmonlarni kutib olish va kuzatish, dafn marosimi, mehnat jarayonlarini o'tkazishning muayyan qoidalari va boshqalar mavjud bo'lgan. Bu marosimlarda bolalarning doimiy ishtiroki ta'minlanadi. Bu odatlar yordamida o'zbeklarning an'anaviy muomalamadaniyati shakllanadi.

Sobiq sho'ro tuzumi davrida milliy an'analarga, odatlarga hurmatsizlik qilish oxir-oqibat axloqiy holatlarning yomonlashuviga olib keldi. So'ngi yillarda insonlarning tabiat, jamiyat, dinga nisbatan munosabatlarida erkinlik paydoblidi. Bunday sharoitlarda odat, marosimlar, muomala madaniyatidagi o'ziga xosliklar o'sib kelayotgan avlodning har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash tizimida yanada muhim o'rin tuta boshladi. O'zbek xalqining axloqiy odatlarining mustahkamligi, asosan, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyava alohida ahamiyat berilishi bilan bog'liq.

O'zbekxalq pedagogikasida sevgi, oila, bolalar haqidagi qarashlar ko'p yillik tajriba ta'sirida shakllangan. Bu tushunchalarning qonun vaqonuniyatlarida pedagogik amaliyotda sinalgan tarbiya me'yorlari va qoidalari o'z aksini topgan. Xalq pedagogikasida oila inson hayotida eng asosiy tarbiya omili sifatida ko'riladi. Oila jamiyat negizidir. U bolalarga tarbiyaviy ta'sir etishning usullari, odat va an'analarni bilishi, dam olish tartibini, bolalarning mehnat va o'quv mashg'ulotlarini belgilashi, ota-ona va bolalar orasidagi o'zaro munosabatlarning eng qulay me'yorlarini ishlab chiqishi lozim. Chunki bola o'zini qiziqtirgan masalalar bo'yicha eng avval o'z ota-onasi bilan maslahatlashadi. Buyerda oila a'zolari orasidagi munosabatlar amalga oshadi hamda ota-onaning tarbiyaviy vazifalari aniqlanadi.

Oila va oilaviy tarbiyaning u yoki bu xususiyatlari doimo xalq e'tiborida bo'lgan va xalq pedagogikasida o'z ifodasini topgan. Xalq, avvalombor, baxtli oila yaratish uchun kurashgan. Xalq pedagogikasida oila "baxt manbai", "tabiatning go'zalligi", mehnatsevar jamoa sifatida quriladi, oilada ayol va erkak teng xuquqligi e'tirof etiladi. ayollar huquqiy himoya qilinadi, er-xotinlarning ajralishlari qoralanadi, oilaviy nizolarni nixoyatda ehtiyotkorlik bilan hal qilishni maslahat beriladi. Xalq pedagogikasida onalikka oliy ijtimoiy qadriyat sifatida qoraladi, xalq og'zaki ijodida esa ona doim

ulug'lanadi. Xalq tomonidan oilaning ijtimoiy vazifalarini bolada axloq, hurmat, kattalar va kichiklar bilan hushmuomala bo'lish. Dehqonchilik chorvachilik turli kasb-hunar malakalarini egallashda e'tirof etilgan.

Islom tavhidlik dini, ya'ni uning mazmuni ya gona xudo - Olloh iymon keltirishdir. Bu dinning asoschisi Muhammad s.a.v. (570-632) musulmonlar tomonidan payg'ambar, ya'ni Allohning elchisi, deb e'zozlanadi. Islom dinining muqaddas kitobi – Qur'oni Karimdir.

Qur'on matni VII asrda yozilgan. Xalifa Usmon davrida Qur'on yagona kitob shakliga keltirilgan va uning boshqa barcha matnlari yo'q qilingan. Qur'on 114 suradan iborat. Oddiy musulmon Qur'onning murakkab suralarini faqatgina tafsirlar orqali tushunishi mumkin. Eng mashxur tafsirlar Ag-Tabariy, Zamag'shariy, Baydoviy, Faxriddin, ar-Roziy, al-Qurtubiyga tegishli. Natijada sunna-Qur'onning mazmunini tushunishini boshqarish yaratilgan. Sunna oila, urug'.qabila a'zolari orasidagi munosabatlarini tartibga keltirgan bo'lib, yozmagan axloqiy oidalar sifatida ham qullanilgan. Sunna hadis shakliga ega. Xadislarni yig'ish. ularni ajratishga ko'p olimlar o'z umrlarini bag'ishlaganlar. Islomga muvofiq Qur'on barcha musulmonlar buysunishlari lozim bo'lgan muqaddas kitobdir.

VI asrning o'zidayoq islom insonning ijtimoiy huquq va erkinliklarini e'lon qildi. Bu erkinliklar inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan edi.

Shariatning huquqiy qadriyatlari ijtimoiy tavsifga ega va quyidagi tamoyillarga asoslangan adolatli jamiyatni ifodalaydi:

- jamiyatning barcha azolarining irqi, tili va diniy mansubligidan qat'iy nazar tengligi;
- jamiyat barcha a'zolarining teng mas'uliyatga egaliklari, chunki ular bitta manbadan kelib chiqqanligi;
- inson g'asti va erkinligi tengligi;
- oila jamiyatning asosidir: jamiyat oilani o'z himoyasiga oladi va unga g'amxo'rlik qiladi;
- boshqaruvchi va boshqariluvchilarining tengligi;

— yagona Olloh barcha narsaning egasi va u tomonidan yaratilgan ne'matlar barcha mavjudot va maxluqotlarga uning hadyasidir.

Hozirgi pedagogning muhim vazifalaridan biri Milliy g'oyani bolalar va o'quvchilar ongida shakllantirish tadbirlari va mexanizmlarini ishlab chiqib, uni amalga oshirishdan iboratdir. Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov shunday degan edi: Endigi vazifamiz shundan iboratki, Milliy g'oya tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyoliylar, ilm – fan va madaniyat namoyondalari, avvalo, ma'naviy – ma'rifiy soha xodimlari milliy mafkurani takomillashtirish, uning asosiy tamoyillarini odamlar qalbiga va ongiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishi zarur.

Mana shuning uchun ham yaratiladigan qo'llanmalar mazmunida Milliy g'oya asosiy o'rinni olishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagoglar ikki bosqichda o'qitiladi. Birinchi bosqichda ya'ni bakalavriatda mutaxassis o'zi tanlagan soha bo'yicha 4 yil davomida ta'lim oladi. Ikkinchi bosqich magistraturada davom ettiriladi. "Ijtimoiy pedagog" sohasiga tegishli barcha mutaxassilarning ham umumiy o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'ladi. Bir qator tadqiqotchilar ularning shaxsiy tavsifnomasi sifatida individual-ruhiy xususiyatlar va maxsus qobiliyatlarni ko'rsatmoqda.

Kuzatuvchanlik, vaziyatda tez yo'lga tusha bilish, fahm- farosat bilan seza olish, o'zini boshqa odam o'rniga qo'ya olish va uning hissiyotlarini tushuna bilish, o'zini boshqara olish va refleksiya (fikir yuritib uni tahlil qilish) maxsus qobiliyatlar jumlasidandir. Shuningdek ijtimoiy pedagog dilkashlik, odamlar bilan ishlay olish, qiziqqonlik, o'z fikrini o'tkaza olish, baxsli vaziyatlarda yo'l topa bilish, tirishqoqlik kabi ijtimoiy sohaning barcha xodimlariga xos xususiyatlarga ham ega bo'lmog'i darkor.

Xorijiy tadqiqotchilar ham pedagogning individual-ruhiy xususiyatlari to'g'risida o'z fikrlarini bildiradi. Masalai, Buyuk Britaniyalik olimlar bunday xususiyatlar qatoriga yuqori darajadagi aqliy salohiyatga egalik, tartiblilik va o'z-o'zini boshqara bilish, jismonan kuchlilik, odamlarga qiyin vaziyatlarda yordam bera olish, chidamlilik, sezgirlik kabilarni kiritadi.

AQShning mashhur psixologlaridan sanalgan J. Xoland o'zining "o'ziga yo'naltirilgan qidiruv" metodikasida ijtimoiy soha kasbi egasiga xos xususiyatini ko'rsatgan. Bular: realistlik (xaqqoniylik), tadqiqotchilik, artistlik, ijtimoiy, tadbirkorlik, konventsional xususiyatlardir. U ijtimoiy pedagogga xos insonparvarlik, ideallik, mashuliyatlilik, axloqlilik, xushmuomalalik, iliqlik, odoblilik, o'zgalarni do'st tuta olish kabi xususiyatlarni ham ko'rsatadi.

Ijtimoiy pedagog kasbi insonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimida faoliyat yurituvchi ko'pqirrali soha bo'lib, pedagogning qaysi ishda ishlashidan qathiy nazar odamlar bilan va avvalo bolalar bilan ishlashga yo'naltirilgan. Muloqot jarayonida pedagog ko'p ruhiy og'irlikni va charchoqni o'zida sinashiga to'g'ri keladi. Shu bois uning asab tizimi ham mustahkam bo'lishi darkor. Bu narsa unga ijtimoiy-pedagogik, ruhiy-tegapektiv jarayonlarda emotsional qiyinchiliklar bilan to'qnashuvda yordam beradi.

Ijtimoiy pedagogga xos yana bir karakter bu "Men-obrazidir" Bu narsa pedagogning o'ziga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishini hamda boshqalar tomonidan o'ziga yuqori baho berilishini ifodalaydi. Mazkur karakter pedagogga boshqa odamlar bilan erkin muloqot qilish va ularni oson qabul qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy pedagogning quyidagi shaxsiy fazilatlarini alohida ajratishimiz mumkin.

Insoniylik xususiyatlari (mehribonlik, boshqalar manfaatini ustun qo'yish, o'z shaxsiy qadr-qimmatini hissi).

Xususiyatlar (ruhiy barqarorlik, yuqori darajadagi hissiy va irodaviy xususiyatlar)

Ruhiy tahlilchilik xususiyatlari (o'zini idora qila olish, o'ziga tanqidiy qarash, o'zini baholay olish).

Ruhiy-pedagogik xususiyatlar (kirishuvchanlik, gapga chechanlik.)

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar bilan tanishar ekanmiz, har qanday odam ham ijtimoiy-pedagogik faoliyatni olib borish qobiliyatiga ega bo'lavermasligiga ishonch hosil qilamiz.

Har bir pedagogning kasbiy omilkorligi, ya'ni uning o'z faoliyatini olib borishga amaliy va nazariy tomondan tayyorligi me'yoriy-huquqiy hujjatlar yordamida tartibga

olinadi. Mazkur hujjatlar o'z ichiga mutaxassis pedagogning kasbiy majburiyatlarini, mehnat tavsifnomasini, bilim va malakasini oladi. Rezyume (qisqacha xulosa)

IJTIMOY Ish-aholining ijtimoiy himoyalanmagan qatlamlariga yordam ko'rsatish hisoblanadi. Ijtimoiy ishlarning ob'ekti inson hisoblanadi, lekin hamma emas, balki faqatgina muammolari bo'lganlari (ekologik, ijtimoiy, texnogen, millatlararo keskin o'zgarishlar, bo'zilishlar natijasida) yoki sog'lom bo'lmagan, jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lganlar hisoblanadi.

Madaniyat - jamiyatning tarixiy mahlum bir rivojlanish darajasi., ijtimoiy kuch, inson qobiliyati, odamlar xayotiy faoliyati shaklini tashkil etish usuli, asosan ular tomonidan yaratilajak moddiy va ma'naviy qadriyatlar bilan belgilanadi.

MURUVVAT KO'RSATISH-muhtojlarga yordam, hayriya-sahovat alohida shaxslar, yoki tashkilotlar tomonidan muhtojlarga, yoki aholi guruhlariga beminnat yordam berish. Rahm-shavqat, marhamat, rahmdillik-barchaga yordam berish, yoki o'zgalarni kechirish, g'amxo'rlik qilish, insonparvarlik.

XAYRIYA-(muhtojlarga yordam, xayr-sahovat)-muhtoj odamlarga yoki aholining ijtimoiy guruhlariga xususiy shaxslar, yoki tashkilotlar tomonidan bepul yordam ko'rsatish.

MEHRIBONLIK-(mehr-sahovat) (rahm, shavqat, marhamat, rahmdillik) rahmdillik, odamiylik, insonparvarlik yuzasidan kimgadir yordam ko'rsatish, yoki kimnidir kechirish avf etish.

"Kasbiy majburiyatlar"- Bolalarni ijtimoiy ximoya, qo'llab-quvvatlash, hamda bu borada xizmat ko'rsatuvchi muassasalar to'g'risida zarur axborotlar bilan tahminlanadi.

-Inson va bola huquqini ximoya qilishga qaratilgan, turli toifadagi bolalarning xaq-huquqlarini tahminlashga, bolalarni huquqiy jihatdan tarbiyalashga yo'naltirilgan ijtimoiy-huquqiy yordamni ko'rsatish.

-Ruhiiy va emotsional yordamga muhtoj bolalarga ijtimoiy-reabilitatsion yordam ko'rsatish.

-Kam tahmiilangan oilalarda yashovchi bolalarning maishiy xayotini yaxlitlash maqsadida ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish.

- Bemor bolalarga zarur tibbiy-ijtimoiy yordamni ko'rsatish. Alkogolizm, giyohvandlik bilan shug'ullanuvchi voyaga etmaganlarni davolash.

Ijtimoiy pedagogdan quyidagicha kasbiy bilimlar talab etiladi :

- O'z faoliyatining me'yoriy-huquqiy asosini (qonunlar, farmonlar, qarorlar va yo'riqnomalar), ijtimoiy pedagogika nazariyasi va tarixini, turli muhitlarda turli toifa bolalari bilan ishlashning metodikasini va texnologiyasini, bola shaxsini, uning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishni o'rganuvchi psixologiyani ; odamlarning uyushma va guruhlar (Oila, maktab va mehnat kollektivi) ni o'rganuvchi sotsiologiyani; o'z kasbiy tadqiqot faoliyatini ijtimoiy boshqarish va rejalashtirish metodini bilish va quyidagi kasbiy malakalar talab etiladi.

Tahdid qila olish qobiliyati. Bolaning shakllanishida unga muhitning salbiy va ijobiy tahsir ko'rsatuvchi harakatlarini aniqlab tahlil qila bilish.

Bashoratchilik qobiliyati faoliyat olib borish usullarini belgilab olib uni aniq maqsad tomon yo'naltirish, duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan ko'ra bilish va hisobga olib, vaqtni to'g'ri taqsimlash. Loyihalashtira bilish faoliyati aniq bir loyiha asosida, tarbiyalanuvchining shart—sharoitlari va mavjud muhit talablarini hisobga olib, aniq bir tartibda olib borish, o'z faoliyatining har bir bosqichida ijobiy va salbiy natijalarni to'g'ri tahlil qila olish; kirishuvchanlik— ya'ni bolani eshitish va tinglay olish, bola bilan muloqot jarayonini osonlashtirish, bola muammosini to'g'ri tushunish uchun zarur axborot va mahlumotlarni to'plash.

Ijtimoiy pedagog faoliyati sohalari ijtimoiy pedagog lavozimi bugungi kunda ikkita idorada — ta'lim muassalarida va yoshlar ishi bo'yicha muassalarda joriy etilgan. Yoshlar ishi bo'yicha idoralarda mazkur lavozim 8 xil muassasada ro'yhatga kiritilgan. Bular bolalar klublari, bolalar ijodiy markazlari, yoshlar yotokxonasi, o'smirlar dam olish maskanlari, yoshlar ta'lim markazlari, kasbiy yo'naltirish markazlari, bandlik markazlari, bolalar va yoshlar mehnat birjalaridir. Ta'lim sohasida esa pedagog 6 xil muassasa ro'yhatiga kiritilgan. Bular maktabgacha tarbiya tashkilotlari, umumta'lim muassalari, umumta'lim internatlari, boquvchisini yo'qotgan bolalar uchun umumta'lim idoralari, maxsus ta'lim muassalari, boshlang'ich kasbiy

ta'lim muassalaridir.

Ijtimoiy pedagog lavozimi mazkur ikki idorada joriy etilgan bo'lsada, aslida ularga bo'lgan talab yana ham kengroq. Bunday lavozim deyarli barcha ijtimoiy sohalarda joriy etilgan. Ular sog'likni saqlash muassalarida (ruhiy nosog'lom, giyohvand bolalar uchun), aholini ijtimoiy himoyalash muassasalarida (imkoniyati cheklangan o'smirlar reabilitatsiya markazlarida, voyaga etmaganlar reabilitatsiya markazlarida), ichki ishlar organlari tarmog'idagi muassalarda (maxsus yopik, davomi yo'q ekan.)

Ijtimoiy pedagogik ishlar faol g'oyaviy – axloqiy imkoniyatlarga ega, u shaxs xulkida paydo bo'lgan salbiy elementlarga qarshi ko'rashda muhim omilga aylanadi. U ijtimoiy fikrni shakllantirish yo'li bilan jamoada sog'lom ma'naviy – ahloqiy muhit hosil qilishga tahsir ko'rsatadi, ilg'or ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlaydi, shaxs qadr – qimmatini tahminlaydi, qonunni hurmat qilishga o'rgatadi. Bu ayniqsa bugungi kunda, jamiyat ma'naviy yangilanish jarayonini boshidan kechirayotgan bir davrda muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyaviy faoliyatning muhim rezervlaridan yana biri – ommaviy targ'ibot bilan bog'liq bo'lib, g'oyaviy – tarbiyaviy ishlarning barcha shakllarida g'ayrat va tashabbus talab etildi. Bunda davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ommaviy – tashkiliy tadbirlar o'tkazish, kechalar, bayramlar, rasm – rusmlar, urf – odatlar, jumladan «Navro'z », «Xotira va qadrlash kuni» va boshqa tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Ommaviy ishlarda ijtimoiy – tarbiyaviy muvaffaqiyatlarga ommaning ijtimoiy – madaniy faoliyat yo'nalishini chuqur anglagan xoldagina erishish mumkin. Bu birinchi navbatda. pedagogik tamoyillar asosida ma'rifiy muassasa ishlarini tashkil etishda va metodikasida o'z ifodasini topadi. Tadbirlarni faqat g'oyaviy yo'nalishini emas, ayni chog'da ijtimoiy – pedagogik, ijtimoiy – psixologik mohiyatini anglash, tashkiliy ishlarda uning mexanizmlariga tayanish zarur.

Ijtimoiy pedagog va ijtimoiy xodimlar faoliyati asta sekin kengayib, biri ikkinchisini to'ldira bordi.

Ijtimoiy – pedagog boshqaruv va ijtimoiy jarayonlarni nazorat qilish ob'ekti

sifatida yoshlar jinoyatchiligining oldini olish maktab, ichki ishlar bo'limi, voyaga etmaganlar jinoyatchiligiga qarshi ko'rash organlarining birgalikdagi tadbirlari tizimi doirasida amalga oshirilishi kerak. Shundan kelib chiqib dastlabki talablar olg'a suriladi. Mazkur faoliyat samaradorligi uchun xizmat kiladigan ob'ektiv jarayonlar va hodisalarni hisobga olib borish; tarbiyaning noqulay sharoitiga va shaxsni noto'g'ri yo'lga kirishining boshlanishiga o'z vaqtida ehtibor berish maqsadida ijtimoiy – pedagogik istiqbol metodlaridan foydalanish; o'smir shaxsning individual – psixologik va ijtimoiy sifatlarini hisobga olish.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar Vazirligining 1994 yil 29 dekabrda 332 – sonli buyrug'ining ilovasida keltirilgan metodik tavsiyalar mazkur ishlarni amalga oshirishda muayyan yordam beradi.

Milliy ongni uyg'otish va shakllantirish o'zini anglashdan boshlanadi. Milliy g'urur – bu o'z yurtining tarixini bilish, xalqning madaniy merosini himoya qilish, milliy qadriyatlarni tiklash, o'zligini anglash va namoyon etish kabilarni bildiradi.

1910 – 1920 yillarda xalqning eng faol vakillari jadidlar ma'rifatparvarlik vositasida xalqning qaddini ko'tarish va jahon hamjamiyatining munosib ishtirokchilari bo'lish g'oyasini olg'a surdilar. Buni o'rganish shunisi bilan muhimki, ularning etuk avlodni tarbiyalash, mustaqillikni muhofaza qilishda ma'naviy meros vazifasini o'taydi. O'zbek ziyolilari Vatan ozodligi uchun kaxramona ko'rashni XX asr boshlarida boshladilar, mustaqillikka erishishda ularning roli shundaki, avvalo barcha millatlarni tinchlikda, totuvlikda yashashga chorladilar.

Ma'naviy-ma'rifatchilik ishlarini yangi bosqichga ko'tarish uchun barcha ta'lim muassasalarida targ'ibot va tashviqot ishlarni amalga oshirish zarur.

Afsuski, bugungi kunda hamma o'quvchi davlat ramzlari ularning ma'nosini biladi, deb bo'lmaydi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Milliy ramzlarimiz bizning milliy g'ururimizni ko'tarishga xizmat qiladi. Ularning har biri o'lkan darslik, tarbiyaning kuchli vositasidir». Mana shuning uchun ham joylarda davlat ramzlari asosida ko'rik-tanlovlar, munozaralar o'tkazish maqsadga muvofiq. Har bir odam davlat ramzlarini butunlay yoki qisman bilmay turib, o'ylab ko'rsin, shu davlatning munosib fuqarosiman,

shu xalqning o'g'liman yoki qiziman deya oladimi. Milliy ongni shakllantirishda davlat ramzlarining buyuk ahamiyati borligini tushuna oladimi.

Biz ulug' Amir Temur vasiyatini bajarishimiz kerak: «Sizning vazifangiz ulug' obro' – hurmatimizni, millatning baxti va farovonligini himoya qilish, ularning dardiga malham bo'lishdan iboratdir».

Bizning eng katta yutug'imiz o'z boyligimizga o'zimiz ega bo'lganimizdadir. Binobarin, ularda minnatdorchilik, g'urur va ishonch tuyg'ularini tarbiyalashimiz kerak. Ma'naviy, ahloqiy mukammallik, vijdonlilik, or – nomuslik, yaqinlarga g'amxo'r bo'ling va boshqa insoniy tuyg'ular o'z – o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, ularning asosida tarbiya yotadi.

Tarbiya jarayoni – uni tiklash, rivojlantirish va xayotga joriy qilish, ta'lim, milliy, ma'naviy – ahloqiy qadriyat va normalar bilan bevosita bog'liq. Ular xalq pedagogikasi, urf – odatlari, bayramlari, o'yinlari va boshqalarda o'z ifodasini topadi». Ma'naviyat va ma'rifat» markazi, «Ma'rifatparvarlar», «Oltin meros», «Tarixchilar», «Faylasuflar» va boshqa jamoat tashkilotlari, jamg'armalari yuqorida qo'yilgan vazifalarni hal etishda katta imkoniyatlariga egadir.

Tarbiyasi «qiyin» o'smirlar anomalligi o'qishda (o'qishi qiyin, dangasa va xulqida intizom va tarbiyaga rioya qilmaydi) namoyon bo'ladi. «Qiyin bolalar» - jamiyatga zid yo'nalishdagi, beqaror axloqli, irodasi bo'sh, pedagogik tahsiriga doim qarshilik ko'rsatib keluvchi yoshlardir. Maktab miqyosida ular ko'p uchramaydi (bir sinfda ikki – uchtdan). Ammo sinf, maktab xayotiga, uning ahloqiy muhitiga jiddiy tahsir ko'rsatadi. «Qiyin» bolalar o'quvchilarning kam qismini tashkil etsa ham ular o'quv – tarbiyaviy ishlarda barqarorlikka jiddiy to'siq bo'ladilar. Ular maktabda va undan tashqarida (oilada, ko'chada, dam olish joylarida va x.k.) tartibsizlikni vujudga keltiruvchilar hisoblanadi. Shuning uchun ham «qiyin» bolalar maktabda ham, undan tashqarida ham o'qituvchi va barcha jamoat ehtiborida turishi kerak.

Tarbiyasi qiyin bo'lganlarning kelib chiqishining ijtimoiy – psixologik va psixologik – pedagogik sabab va omillarni besh guruhga ajratish mumkin:

1. Noqulay oilaviy muhit, ota – onalari o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlar.

2. O'qishga bo'lgan qiziqishning pasayib ketishi va shu munosabat bilan o'qishdan sovib ketishi (60 – 70 % voyaga etmagan jinoyatchilar bir sinfda ikki yil o'qigan).

3. Ijtimoiy faolligi past va maktab jamoasida noqulay holat mavjud.

4. Mikromuhitning salbiy tahsiri, salbiy referent guruh tahsiri.

5. Biror faoliyat yuzasidan o'z moyilligini, qiziqishini namoyon qilish imkoniyati bo'lmasligi.

Psixolog-pedagogik nuqtai nazaridan o'smirlar bilan ishlaydigan katta yoshdagilar quyidagi qoidaga rioya qilishlari lozim. Ko'p nasihat qilavermang, o'smir his tuyg'ularini hurmat qiling; xayotda mustaqil bo'lishga o'rgating; ko'p dakki beravermang; do'q-po'pisa qilmang.

Deviant xulq-atvorli bolalarni reabilitatsiya qilish yo'llari. Tarbiyalovchi funktsiya bolani atrof muhitga kirishishi ta'lim tarbiya jarayonida adaptatsiya, ijtimoiylashtirish jarayonini amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy reabilitatsiya bolalar uchun davlatni bolalarga g'amxo'rliqi. Ijtimoiy-reabilitatsion funktsiya. Ruhiy jismoniy nuqsonga ega bolalar ta'lim- tarbiya bolalarni tarbiyalash funktsiyasi pedagog tomonidan amalga oshiriladi.

1. Bola ongida barcha jonli mavjudotga muhabbat ijodiy tushunish, vijdoniylik tuyg'usini tarbiyalash lozim.

2. Atrofdagi odamlar bilan muloqotga kirishishga o'rganish hayot maqsadida va mazmunini anglatadi.

3. Atrofdagi olamni tushunish uning ruhida ma'naviyxususiyatlarni, jamiyatdagi huquqiy normalarini rivojlantirish.

4. O'z - o'ziga hurmat, mustaqillik his- tuyg'usini shakllantirish.

5. Bolalar orasida, mehnatda va maktabda oilada tengdoshlari, katta yoshdagi odamlar muloqotga kirishish malakasini shakllantirish. Odamlar orasida shaxs va jamiyat o'rtasida kelishmovchiliklarni bola atrofidagi muhitdagi ijtimoiy munosabatlar, hususiy normalarga tayanib o'z hayotini tashkil qilishni o'zini individualligi, vazifalari xususiyatlarining rivojlantirishni tarbiyalashga qaratilgan deb ehtirol etishi joizdir.

2.2 O'zbek xalq mentaliteti ijtimoiylashuvining an'anaviy omili sifatida.

Ijtimoiy pedagogikaning amaliyoti va nazariyasi xalqning etnografik tarixiy, madaniy an'analari va xususiyatlariga bog'liq, bo'lib, inson, insoniy qadriyatlar haqidagi diniy va axloqiy qarashlarga tayanadi. Inson sivilizatsiyasi davomida har qanday jamiyat o'z mustaqil mavjud bo'lishini ta'minlay olmaydigan a'zolari bolalar, qariyalar, kasallarga munosabat mavzusi bilan bir necha bor duch kelgan. Bunday odamlarga munosabat jamiyatning g'oyaviy, ijtimoiy iqtisodiy, axloqiy va milliy xususiyatlariga bog'liq, ravishda rivojlangan va ularning jismoniy yo'q qilinishidan tortib, jamiyatda to'liq, integratsiyalashuvlarigacha bo'lgan ko'rinishlarda ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, davlat va jamiyat rivojining o'ziga xos yo'lini tanlashi milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklash va hayotning barcha jabhalarida milliy xususiyatlarni inobatga olish vazifasini qo'ydi.

Bugun shaxs shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi omillarni alohida inobatga olish kerak. Bunday omillarga nafaqat moddiy, g'oyaviy va psixologik sharoitlar, balki shaxsning shakllanishi ro'y bergan muhit ham mansubdir. Bu jarayonga turli davlatlarda olib boriladigan millatlararo munosabatlar va milliy siyosat ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu, ayniqsa, shaxsiy xislatlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday xislatlarga milliy o'z-o'zini anglash, g'urur, iftixor kabi tushunchalar kirishini e'tiborga oladigan bo'lsak shaxsning axloqiy shakllanishi umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqligida kechadi, deb xulosa qilish mumkin.

O'zbek xalqi o'ziga xos etnik muhitga egadir. Bunday muhitda bolalar yoshligidan o'z ona (milliy) tillarining va unda o'z aksini topgan ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ashulalarning ta'sirida bo'ladilar. Bolalar asta-sekin milliy an'analari, urf-odatlarining aniq me'yorlariga ko'nikishishadi. O'quvchilar milliy tarixni, adabiyotni o'rganish va ona tillarida turli ma'lumotlarni olish orqali o'smirlik yoshidayoqo'z etnik va umummilliy mansubliklarini anglay boshlaydilar.

Etnomadaniy sharoitlarning ijtimoiylashuviga ta'siri mentalitet darajasida nisbatan yorqin namoyon bo'ladi. "Mentalitet" tushunchasi XX asr boshida franso'z olimi L. Levi-Bryul tomonidan fanga kiritilgan. Mentalitet "etnos" (xalq elat) tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Etnos - bu tarixan bir xududda shakllangan, til, madaniyat, ruxiyatning umumiy, nisbatan barqaror xususiyatlariga ega bo'lgan, shuningdek boshqa shunday tuzulmalardan duyoni anglashi bilan ajralib turuvchi insonlar majmuasidir. Bironbir etnosga mansublik tug'ilishdanoqbo'lmay, ijtimoiylashuv, shaxsning muayyan madaniy soxadagi shakllanishi, bolaning axlotsiy steriotiplarni ulashtirishi davomida namoyon bo'ladi.

Ensonning muhim xususiyatlaridan biri etnik o'z-o'zini anglashning mavjudligidir. Etnosni boshqa etnoslardan ajratib turuvchi xususiyatlar (til, qadriyat, me'yor, din, milliy harakter, san'at kabidar), asosan, shu etnos a'zosi bo'lgan kishilarga xos bo'ladi.

Insonlarning ijtimoiy-pedagogik birligi sifatida etnos har bir inson uchun muhim vazifalarni bajarishi mumkin: nisbatan kengma'lumot berish orqali atrof-muhit umum hayotiy qadryatlar bilan tanishtirish, nafaqat ijtimoiy, balki jismonan o'zini sog'lom xis qilishi uchun himoya qilish. Etnik jamiyat vaqt mobaynida nisbatan muhim bo'lib, uning tarkibi barqarordir. Inson etnik maqomga ega va uni etnosdan ajratib bulmaydi. Shu xususiyatlar tufayli etnos inson uchun qo'llabquvvatlashi utuli hisoblanadi.

Etnosning shaxsiy, faoliyat va ijtimoiy darajalaridagi xususiyatlari etnopsixologiya orqali ifodalanadi. Etnopsixologiya milliy hissiyot va kayfiyat, milliy madaniyat va manfaat, milliy an'analarni o'z ichiga oladi. So'ngi yillarda etnopsixologiyada "milliy harakter" tushunchasi kam ishlatilmoqda. Etnik guruhlarining psixologik xususiyatlarini ifodalash uchun esa mentallik va mentalitet tushunchalari qo'llanilmoqda.

Mentallik insonning olam, o'zining bu olamda tutgan o'rni haqidagi tasavvurlari asosida yagona obrazlar tizimi bo'lib, biron-bir davrdagi u yoki bu etnik guruhga xos bo'lgan dunyo qarashdir.

"Mentalitet" kategoriyasi hozirgi vaqtda gumanitar fanlarda an'analalar va madaniyat orqali aniqlab beriluvchi ommaviy dunyo qarashni tarkibini ifodalash uchun ishlatilmoqda. Mentalitetningturli ta'riflari mavjud bo'lib, anglanmagan darajada jamoa

tasavvurlari majmuasidir. Mentalitet muayyan tabiiy-iqlimiy va tarixiy-madaniy sharoitlardashakllanadi. (A. V. Mudrik).

Mentalitet - bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning dunyoni muayyan obrazda qabul qilish, his qilish va unda tafakkur yuritishini o'z ichiga oluvchi individual va jamoa ong darajasi.

Mentalitet shu xalqning uzoqtarixiy rivojlanishi natijasida shakllanadi va milliy harakteriqtisodiy va ijtimoiy xulq atvorning milliy modelini belgilab beradi.

Mentalitet hatto bir mafkura boshqasiga o'zgarganda ham o'zining asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi mumkin. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mentalitet bir xil madaniyatga tegishli odamlarning u yoki boshqa masalani anglash va tushunishda umumiylik mavjudligi bilan aniqlanadi. Turli xalqlarning mentalitlari quyidagi ijtimoiy xodisalar bilan farqlanadi, ijtimoiy tuzulmaga baho berish, huquqva odat haqidagi qarashlari, ozodlikka munosabati, ozodlikni tushunishlari, mehnat, mulkchilik boylikka munosabatlari, zamon va makonni tushunishlarini qanday qabul qilishlari.

Mentalitet - bu xalqmadaniyatining keng maydondagi kvintesseksiyasidir. “Mentalitet” kategoriyasi, odatda, ijtimoiy - psixologik kategoriya sifatida tushuniladi. Mentalitet tushunchasi tarkibining psixologik taxlili mentalitet tushunchasini muayyan madaniyatda yashovchi odamlarning integral tasviri sifatida tushunish imkonini beradi. Butahlil I. G. Dubrov, V. I. Kuqushkin, A. S. Pamarin, V. S. Barulinlartomonidan o'tkazilgan. Boshqacha qilib aytganda, mentalitet jamiyatning ma'naviy-ruhiy qiyofasi, jamiyat dunyoqarashining asosiy yo'lochovi sifatida tushuniladi.

Mentalitet ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin egallash chunki u ijtimoiy axborot tashuvchisi hisoblanadi. Ijtimoiy axborot bu holatda 3 asosiy guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish surollari va mehnatning jamoaviy natijalari; ob'yektiv ijtimoiy munosabatlar; til va muloqot.

Mentalitet ijtimoiy axborotning o'ziga xos qismi sifatida o'zining uzatish kanallariga ega. Ular orasida eng asosiylari tabiiy muhit, mumtoz va boshqa keng tarqalgan matnlar, til tarkibi va kundalik yumushlar hisoblanadi. Hozirgi kunda “mentalitet” tushunchasi fanda tor va keng ma'noda tushuniladi. Keng ma'noda

mentalitet jamiyat, jamiyat ongini qabul qilishning o'ziga xosligini, tushunishning umumiy aqliy faoliyat vositasi (instrumentariyasi) sifatida, o'zining tabiiy va ijtimoiy muhitini hamda o'zligini muayyan tarzda anglash, olamga o'ziga xos munosabatda bo'lish imkonini beradi.

Mentalitet na uning tarkibiy qismlari tor ma'noda ham mentalitet ijtimoiy ma'lumotning nisbatan chuqur va kam o'zgaradigan qismi bo'lib, milliy harakter va dunyoni tushunishga asoslangan ajdodlar tajribasi sifatida qaraladi.

Ijtimoiy pedagogika, xuddi pedagogika kabitarbiyalanuvchilarning etnopsixologik xususiyatlarini inobatga olishi kerak. Milliypsixologiyani bilish tarbiya ishining sifatini oshirishning samarali yo'llarini topishga imkon beradi. Etnopsixologiya pedagogika faniga muayyan milliy guruhlar vakillari tomonidan tarbiyaviy ta'sir choralari qabul qilishning o'ziga xosliklarini, turli xalqlarning tarixiy tajribasini inobatga olib tarbiyaviy tadbirlar mazmunini, uyoki bu millat vakillarining tarbiyaviy choralarga ko'nikish xususiyatlarini, aniq etnik guruh vakillarida milliy psixologiyaning ifodalanishini, turli xalqlarda tarbiyaviy ta'sir paytida intizomiy munosabatlarning ifodalanish xususiyatlarini, milliy mintaqalarda odamlarga nisbatan qo'llanilayotgan psixologik ta'sirga bog'liqlavishda tarbiya ishining mahsuldorligini, turli millat vakillarining muomalasi jarayonida shaxslararo munosabatlarning shakllanishi kabilarni o'rganishga yordam beradi.

Insonlarning milliy psixologik xususiyatlari ularning faoliyatiga quyidagilar kiradi.

- shakllarda ta'sir ko'rsatadi;
- faoliyatning milliy o'ziga xosligi;
- inson xislatlarining milliy xususiyati;
- milliy axloqiy muxitning o'ziga xosligi.

Milliy psixologik xususiyatlar nafaqat inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi, balki bu jarayonga muayyan tuzulish va mazmun ham beradi.

Psixologiyada ijtimoiy ong xodisasi sifatida to'rtta sohani ajratish mumkin:

Motivatsion soha milliy umumiylikning sabablari vag'oyalarining o'ziga xosligi ni tavsiflaydi.

Intellektual bilishsoxasi esa millat tafakkuri bilan bog'liqdunyoqarashning o'ziga xosligini harakterlaydi. Bu jihat ulardagi aqliy xislatlar bilan ifodalanadi.

Kommunikativ xulq-atvor sohasi esa har bir xalqning o'rnatilib bo'lingan o'zaro munosabatlarining me'yorlari, o'z axloq stereotiplari, o'z rahbarlik shakllari mavjudligidan dalolat beradi.

Xalqda shunday gipoteza mavjudki, unga asosan har bir xalq nerv tizimi va aqlining tug'ma xususiyatlarining faoliyat yuritishidagi o'z xususiyatlariga ega. Bu esa milliy harakterning emotsional-irodaviy soxalarining o'ziga xosligini keltirib chiqaradi.

Milliy psixologik xususiyatlar ko'nikmaka stereotiplar mexanizmlari orqali namoyon bo'ladi. Ko'rsatmalar insonning muayyan shaklda u yoki bu hodisani qabul qilishidir, ya'ni ko'rsatma muayyan faoliyat yuritishga tayyorlik biror-bir milliy jamoa vakili o'z etnik sharoitlaridan kelib chiqib milliy mentaliteta, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida milliy axloqiy me'yorlar va qadriyatlar, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va mustahkamlash, atrof- muhitdagi odamlarga baho berish, o'z millati nuqtai nazariga mos kelmaydigan g'oyalarni qoralash vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy va pedagogik amaliyot hamda bir qator tadqiqotlar insonning milliy majburiyatini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institut sifatida oilani e'tirof etadi.

Oila.

-milliy axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish, milliy madaniy muxitga va uning abadiy manbasi, hisoblanadi;

-millat psixologiyasi jihatlarining yo'li orqali aloxida shaxslarongi va ruhiy olamiga kirishini ta'minlaydi;

-milliy qadriyatlarga amal qiladi va ularni asrab avaylaydi;

-o'zinnng milliy tarbiyaviy ahamiyatini inson hayoti davomida saqlab qoladi;

-milliy urf-odatlar va an'analarning asosiy tashuvchisi hisoblanadi.

Oilaning barcha sanab o'tilgan xususiyatlari o'zbek oilasida o'ziningyorqin ifodasini topadi.

O'zbekxalqi shaxsiy xislatlarida ifodalangan milliy xususiyatlari oilada milliy va diniy qadriyatlar asosida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib ta'lim-tarbiya, odat, marosimlar, qoidalar shaklida mustahkamlangan. Bunday qadriyatlarga, avvalo, o'z yurtining o'tmishiga hurmat, milliy an'analarga sodiqlik va ularni hayotga tadbiq etish kiradi. Milliy xususiyatlarning shakllanishiga mehnat faoliyatining harakteri va yo'naltirilganligi, ijtimoiy jarayonlarda qatnashish va madaniy ta'lim darajalari ta'sir qiladi.

Milliy xislatlar shakllanishining asosi milliy, tarixiy, madaniy, diniy va axloqiy qadriyatlar hisoblanadi. Ularning shakllanishi, shakllanishi va avloddan-avlodlarga uzatilish vositasi milliy odat va an'analar hisoblanadi.

Axloqiy qadriyatlar asosida o'zbek oilasida rostgo'ylik, vazminlik kabi xislatlar shakllanadi. O'zbek oilasining pedagogik va psixologik xususiyatlari alohida e'tiborga loyiq. Chunki ular, hayot tarzi, ma'naviy axloqiy muhit, tarbiyaviy tamoyillarni belgilab beradi. Bularga milliy qadriyatlarga sodiqlik diniy an'analar va marosimlarga hurmat, bolalarni yaxshi va xayrli amallarni qilishga undash, o'z so'zida turib, kattalarning yoshlarga namuna bo'lishi, sabr-toqatli bo'lish, yosh xususiyatlarining inobatga olinishi, munosabatlarning hamkorlik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida kurilishi kabilar kiradi.

Bir qator tadqiqotlar va shaxsiy kuzatuvlar asosida biz tarbiyaviy ta'sirlarning natijalari o'zbek millatining o'ziga xos xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga keldik va ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'ldik:

Xarakterologik ishonuvchanlik, xissiyotlilik, sodiqlik, sabrlilik, bolalarni sevisish.

Axloqiy tarbiyalanganlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, mehribonlik, insooniylilik, g'amxo'rlik, saxiylik, vainsonparvarlik.

An'analar, qaysidir ma'noda iqtisodiy va ma'naviy borliqning tarkibiy unsuri sifatida bizning hayotimizni kelajak bilan bog'laydi. har bir rivojlanish bosqichida an'analarning mazmuni va ahamiyati aniq ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va vazifalar bilan belgilanadi.

Xalqda faqatgina insonlarni tashqi va ichki holatda birlashtiruvchi shu qadriyatlarqakddrlanadi. An'analar qanchalik qadimiy bulsa, shunchalik ishonch bilan ularning ahamiyati va jamiyat institutlari tomonidan qabulqilinishiga e'tibor qaratish mumkin.

An'analar o'z ifodalarini namoyon qilish bo'yichanihoyatda milliylik xususiyatiga egadirlar, biroqtarixiy rivojlanish mobaynida ular boshqa xalqla tomonidan ham boyitilishi hamda shu paytning o'zidayoq umumxalq, xalqaro qiyofaga ega bo'lishi mumkin.

An'ana va odatlarga ikki o'zaro borliq ijtimoiy vazifa xosdir:

a) shu jamiyatda o'rnatilgan munosabatlarni barqarorlashtirish vositalari;

b) bu munosabatlarni yangi avlod hayotiga tadbiq; qilish. Bu vazifalar turli yo'llar bilan amalga oshiriladi, agar urf-odatlar bu hayotda qanday harakat qilish lozimligini aniq belgilab qo'ygan bo'lsa, u holda an'analar, yurish-turishning umumiy me'yorlari, tamoyillarini ilgari suradilar.

Hozirgi kunda o'zbekxalqining mentaliteti milliy istiqlol g'oyasiga asoslanadi. Prezident I. A. Karimovta'kidlab o'tganlaridekquyidagilar milliy mentalitetning asosiy tushunchalari hisoblanadi:

- Vatanga muhabbat;
- ona tiliga muhabbat;
- milliy axloqiy, madaniy, ma'naviy qadriyatlar;
- oila;
- mahalla;
- islom dini;
- ta'lim va ma'rifatning o'rni;
- umuminsoniyqadriyatlarga tayanish.

Ijtimoiy hayotning barcha jabhalari maishiy, ijtimoiy, san'at soxasining zaruriy tarkibiy qismi bo'lish bilan birga, an'ana va odatlar odamlarning har bir davrdagi ko'p asrligqarashlarini mujassamlashtiradilar. Aksariyat hollarda an'analarning kelib chiqishi muhim tarixiy hodisalarga borib taqaladi.

Biror bir xalq haqida fikr, munosabat bildirilmoqchi bo'linsa, dastavval shu xalq vakillarining bir-birlari bilan qanchalik hamjihatligi, yakdilligi, o'zaro ahilligi masalasiga e'tibor qaratiladi. Agar mazkur xalqning vakillari o'zaro inoq, hamfikir, uyushqoq, degan mulohazaga kelinsa, unga nisbatan boshqalarda beixtiyor hurmat-ehtirom tuyg'usi yuzaga keladi. Mabodo bu xalq, xususida o'zaro kelishmaydigan, bir-birini hurmat qilmaydigan, fikri va amali ayricha odamlar, degan munosabat bildirilsa, undan boshqaxalq vakillari o'zlarini uzoqroq tutishga, ular bilan munosabatda o'ylab ish qilishga, sergak bo'lishga intiladilar. Shu boisdan hamo'zaro ahillik, inoqlik, milliy birdamlik muammosi dunyodagi barcha xalqlar taqdiri va tarixida hamisha dolzarb, ijtimoiy-ma'naviy muammo bo'lib kelgan. Binobarin, har bir millatning zafarli, shon-shavkatga burkangan yo'li, baxtli taqdiri yoxud musibatli, kechmishi ham ana shu milliy yaqinlik masalasiga bevosita bog'liqholda namoyon bo'libkelgan o'zbekxalqi tabiatan jamoaviy millat ekanligi ma'lum. Chunki biror bir o'zbek to'yi yoxud ma'rakasini yon-atrofdagi odamlar, qavm-qarindoshlari, yaqin birodarlarisiz utishini tasavvur ham eta olmaydi.

Mazkur nazarni isbot etuvchi yana bir jihat o'zbeklaro'zining butun umri mazmunini farzandlari baxtida ko'rishlari, zurriyotlarining baxti uchun ixtiyoriy va qalban o'zlarini sadqa etishga hamisha shay ekanliklaridir. Mazkur nazar tasdig'iga xizmat qiluvchi yana bir fazilat-bu o'zbeklarninghamisha o'z urug'lari, qarindoshlari, farzandlari davrasida mumkim yashashga intilishlaridir. Demak, millatimizning moxiyat e'tiboriga ko'ra jamoaviy ekanligiga shubha yo'q. Jamoaviy xalq esa o'ztaqdiri, maqsadi, milliy g'ururi, yakdil harakat qilishga rag'batli kuchli bo'lishi bilan farqlanishi kerak. Xalqimiz o'zining jamoaviy tabiatli ekanligi, urf-odatlari, an'analari, o'ziga xos fe'l-atvori bilan franso'zlar, ispanlar yoki ruslardan yaqqol ajralib turadilar.

Jamoaviy turmush tarzini mustahkamlashdan iborat ijtimoiy harakat esa qadim-qadimdan xalqimiz vakillarining hududiy darajada qishloq, mahalla tuzulmalari muhitida yashashlarini, shahar miqyosida esa muayyan kasb-hunar yoki ilm-fan sohalarida birgalikda, jamoa tarzida kompakt faoliyat yuritishlarini taqozo etib kelgan. Buning yaqqol ko'rinishi sifatida mamlakatimiz qishloqlari nomlanishiga e'tibor qaratish

joiz. Durmon, Nayman, Qatag'on, Barlos, Nokuz, Saroy, Qangli va xokazo nomlanishlar xalqimiz vakillarining muayyan urug' doirasida qarindoshlar jamoasi tarzida yashab kelganliklarini, to'pchilar, kulolchilar, qandolatchilar, misgarlar, temirchilar maxallalarida esa kasb-hunar asosida birlashib yashash tendensiyasini ko'rish mumkin. Ilm, tasavvuf va badiiy ijodiyotda sulolaviylik, vorisiylik, qavmiy davomiylik ham jamoaviylik an'analarning o'zviy davomi bo'lib kelgan. Mohiyat e'tiboriga va oddiy mantiq talablariga ko'ra jamoaviy turmush tarzi mustaxkam bo'lgan o'zbeklarning dunyoda mahv etuvchi millat bo'lishini tasavvur etish hamqiyin. Ammo milliy kechmishimiz, aychanli va iztirobli lavhalarga to'la tariximiz esa, afsuski bu mantiqni tasdiqlamaydi.

Qisqa tarixiy qiyos keltirsak: Angliya tarixida millat xazinasini ikki ming yillik o'tmishi mobaynida bir marta (1104 yil- da Angliyaning fransozlar tomonidan bosib olinishi paytida) talon-toraj etilgan bo'lsa, AQSh xazinasini So'ngi 200 yildan ko'p vaqt mobaynida biror marta ham, Yaponiya xazinasini esa umuman Xech kim tomonidan egallanmagan, Rossiya davlat xazinasining talanishi faqat bir marta mug'ullar bosqini paytida 1230 yilda yuz bergan. Ammo "O'zbekiston xududidagi davlatlar xazinalari esa 3000 yil mobaynida jami 50 martadan ko'proq ichki va tashqi bosqinlar tufayli taron-toraj etilgan. Mamlakatimiz boyliklari, osori atiqalar, kitoblar, muhim tarixiy obidalar olib ketilgan. Madaniyatimiz, tilimiz, xududimiz oyoqosti qilingan.

Nima uchun dunyoga Abu Nasr Forobiydek «ikkinchi muallim» bergan, zardushtiylik dini orqali olamga yakkayu yagona xudoga sig'inish madaniyatini singdirgan, insoniyatga Al-Xorazmiy daxosi orqali yangi usuldagi zamonaviy sanoq tartibotlarini tuxfa qilgan, Ibn Sino orqali tib ilmini yangi yuksakliklarga olib chiqqan, islom dini mazmunini va dunyoviy talqin etib, uning insoniy mohiyatini teran ochib bergan Imom Buxoriy, Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Abu Mansur al-Moturidiy, Axmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband singari allomalarni dunyoga keltirgan, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi so'z mulking sultonlarini yetishtirib chiqargan ulug' xalq nima sabablarga ko'ra So'ngi turt yuz yil mobaynida bu qadar tanazzulga duchor bo'lib keldi?

Ana shu savollarga javoblarni insoniy munosabatlar tizimidagi kompromiss va konsensus tushunchalari mohiyatini taxlil etish orqali izlashga harakat qilamiz, Ma'lumki, kompromiss deganda ikki yo'q uch tomonning vaqtincha murosa holati tushuniladi. Kompromiss holatida tomonlar bir-birlariga toqat qiladilar, raqiblar bilan keskin ixtiloflardan ongli ravishda tiyilib turadilar. Shu boisdan ham kompromiss muvaqqat, ya'ni vaqtincha kelishuv holati sifatida tushuniladi. Kompromiss holatida ziddiyatlar tashqi shakldan ichki shaklga o'tadi. Ichki zo'riqish vaziyati muayyan muddatgacha o'zini oshkor etmay turadi. Ammo biror bir tomon uchun qulayroq ijtimoiy-siyosiy muhit yuzaga kelishi bilanoq kompromiss holati oshkora konfliktga aylanib ketadi. Tabiiyki, kompromiss holatini milliy mentalitet, axlok-odob, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'ziga xoslik ma'lum darajada jilovlab turadi.

Shu narsa e'tiborga molikki, kompromiss holati muayyan ijtimoiy-siyosiy muxit, davr, ma'naviy-madaniy yondashuvlar o'zgarishi bilan konsensusga yoxud begonalashuvga aylanishi mumkin. Shu boisdan ham kompromiss oraliq muxit bo'lib, tayanish va ishonch bilan hamkorlik qilish uchun mustaxkam bo'lmagan holat hisoblanadi. Ammo jamiyat hayotida mohiyat e'tiboriga ko'ra kompromiss holati kerakli xodisadir. Jaloliddin Rumiy ta'rifiga ko'ra, «Murosa bo'lsa kichik ishlar rivojlanadi. Murosa bo'lmasa, katta ishlar ham zavol topadi».

Murosa holatida xar ikki tomon aloxida-aloxida rivojlanishga intiladi. Nosog'lom raqobat muxiti amal qiladi. Ammo murosa, ya'ni kompromiss holatida kichik ishlar birmuncha jonlansada, katta ishlar rivoj topmaydi. Shunga qaramay, kompromiss holati jamiyatda ma'lum muddatga bo'lsada, muayyan turg'unlikni, tinchlikni ta'minlab berishi jihatidan ijobiy xodisadir.

Demak, o'z vaqtida, aql bilan qo'llaniluvchi, raqib xushyorligini, zararli ta'sir qilish sur'atini susaytirishga qaratilgan kompromiss muayyan naf berishi shubxasizdir. Ammo kompromiss holatining milliy munosabatlar asosi, turmush tarzining mazmuniga aylanib qolishi og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.

XVI asr boshlaridan e'tiboran to mustaqillikkacha bo'lgan Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy xayotni to'la ma'nodagi kompromiss muxiti amal qilgan davr

deb atash mumkin. Negaki, bu davr davlat va ijtimoiy maqomga da'vogar akalar va ukalar, otalar va farzandlar, qarindoshlar, bir millat vakillarining o'zaro ixtiloflari, vaqtincha o'zaro toqat qilib yashashlari, doimiy ichki ziddiyatlar muayyan muddatda almashib amal qilishi voqealariga to'ladir. Shu boisdan ham, yurtboshimiz Islom Karimov aytganlaridek, XVI va XX asr oraligi millatimiz tarixida eng og'ir tanazzul davri sifatida tarixga kiradi.¹

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kompromiss muxitidan chiqa olmagan millat hech qachon rushnolik ko'rmagan va taraqqiyotga erisha olmagan.

Kompromiss holatidan farqqilib, konsensus holati inson-lararo munosabatlarning sifat jihatidan yuqori darajasini ifoda etadi.

Agar kompromiss tushunchasi uchun «toqat qilish», «chidash», «bir gapdan qolish», «tiyilish», «o'z manfaatini o'ylab ish tutish», «qosh qo'yaman deb ko'zdan ayrilmaslikni o'ylabharakatlanish», «raqibini yoqtirmaslikni yashirish», «vaziyatni aql bilan baholab borish», «raqib tomon harakatlaridan doimiy xushyor, sergak bo'lib turish», «muayyan chegarani saqlab kelish» singari so'z va iboralar xos bo'lsa, konsensus tushunchasini ifodalash uchun «mehr», «qalbiy va ruhiy yaqinlik», «do'stlik», «o'zgalar manfaatlarini o'ylab ish tutish», «saxovat», «muhabbat», «qadrlash», «boshqalarni o'zidek bilish», «fidoyilik» singari so'zlar xosdir. Shu o'rinda Xo'ja Bahouddin Naqshbandning «Kimki o'zihaqidaqayg'uribdi, demakki u o'zini o'ylamabdi, kimki o'zgalar haqidaqayg'uribdi, demakki u o'zini o'ylabdi», degan purxikmat so'zlari kompromis va konsensus tushunchalari farqini aynan ochib beradi.

Insoniy munosabatlarda konsensus tushunchasi o'zaroyaqinlikning quyidagi tasnifida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi.

Odatda odamlararo yaqinlik o'zaro tanishuv «tanishchilik»dan boshlanib, bir-birini bilish «bilishchilik»ka, bilishchilikdan esa «jo'rachilik»ka, undan keyin aka-ukalar darajalaridagi «og'aynigarchilik»ka, So'ngi esa «do'stlik» darajasiga o'tib, o'zining oliy bosqichiga yuksaladi. Mazkur evolyutsion dinamika mohiyat e'tiboriga

¹Karimov.I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik sharlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: "ma'naviyat", 1997. 97-101-betlar.

ko'ra erarxik, ya'ni pog'onama-pog'ona yuksalish xususiyatiga ega bo'ladi. Turli millatlarda bu jarayon xar xil kechadi. Masalan, atoqli yozuvchi, do'stlik tarixi kuychisi Viktor Gyugo fransozlar do'stligi xususida fikr yuritib, bu xalq vakillarining favqulodda sadoqatligi va o'z yuqinlarining manfaati yo'lida jonini fido etishga hamisha shay bo'la olishini o'zining romanida mahorat bilan tasvirlagan.

Xuddi shuningdek, Jek Londonning «Martin Iden», Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» asarlarida ham do'stlik darajasidagi insoniy yaqinlik lavhalarini ko'plab uchratamiz. Mazkur xalqlardagi do'stlikka sadoqat lavhalari o'zaro teng yoshli, mavqe va martabasi har xil, ammo maslagi bir odamlar o'rtasida kechadi. Bu xalqlar hayoti bilan badiiy asarlar orqali tanishgan kitobxonlar do'stlikning samimiy qudratiga ishonadilar.

Xalqimiz tarixida esa do'stlik motivlariga bag'ishlangan asarlar orasida Alisher Navoiyning «Farxod va Shirin» dostonidagi Farxod va Shopur obrazlari, qolaversa, shoir Navoiy va shoh Husayn Boyqaro munosabatlari ibratlidir.

Milliy istiklol xalqimiz fe'l-atvori, hayotga bo'lgan munosabati, mentalitetini tubdan o'zgartirish, bunyodkorlik, tom ma'nodagi hamjihatlik ruhiga sug'orilgan yaqinlikni ta'minlashga imkon yaratdi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov asarlarining mazmuni xalqimizni milliy birlik, o'zaro mehrlik, birodarlik va do'stlikka da'vat etuvchi g'oyalar majmuidan iboratdir. Istiqlolni o'tgan 20 yili mobaynida amalga oshirilgan ulug'vor bunyodkorlik ishlari ayni vaqtda xalqimiz mentalitetini konsensus sari yo'naltirishga ham munosib tarzda xizmat qilib keldi. O'zbek mentalitetining konsensusga da'vat g'oyasi yurtboshimiz tomonidan belgilangan strategik taraqqiyot konsepsiyasi asosi bo'lib, ana shu yo'nalishda 1997 yilning «Inson manfaatlari yili», 2001 yilning «Onalar va bolalar yili», 1998 yilning «Oila yili», 2000 yilning «Sog'lom avlod yili», 2004 yilning «Mehr-muruvvat yili», 2002 yilning «Qariyalarni qadrlash yili», 2005 yilning «Sihat-salomatlik yili», 2006 yilning «Homiylar va shifokorlar yili», 2010 yilning «Barkamol avlod yili», 2011 yilning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb nomlanishi va tegishli Davlat dasturlarining hayotga joriy etilishi fikrimizning isboti bo'ladi. Yurtboshimiz ana

shu maqsadni amalga oshirishga tugʻanoq boʻlib kelgan xavfxatarlar tizimini ham asoslab, mahalliychilik, urugʻ-aymoqchilik, qarindoshchilik, poraxoʻrlik singari illatlar ayniqsa xavfliligini taʼkidlaydilar. «Har bir shaxsning milliy oʻzligiga qaytishini, oʻzligini mintaqaviy asosda anglashi belgilab bermasligi kerak... Mahalliychilik vaorada etnik-mintaqaviy fikr yuritishning koʻrinishi, deb hisoblash kerak»¹

¹Karimov.I.A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik sharlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: “Maʼnaviyat”, 1997.-99-bet.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ijtimoiylashuv uzliksiz jarayon bo'lib bunda inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo'ladi.

Ijtimoiylashuv nafaqat shaxsning jamiyatda qulayliklarga ega bo'lishini, balki shaxsning muayyan axloqiy va etnik qoidalarini egallashini ham nazarda tutadi.

Shunday ekan bola ijtimoiylashuvini tashkil qilmasdan turib shaxs shakllanishini ta'minlab bo'lmaydi.

Insoning muhim xususiyatlarida biri uning ijtimoiy mavjudot ekanligidan biridir. Inson o'zining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida o'zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Insoning ijtimoiylashuvi suniy haraktir kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o'rtasidagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan xoli bo'lsa o'zidagi yovuzlik va hayvoniy tabiatdan halos bo'la olmaydi. Insondagi bu tabiiy xususiyatni Abu Nasr Farobiy quydagicha ifodalaydi. "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Sh sababli yashash uchun zarur bo'lgan kishilarni bir-birlariga yetgazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har-biriga yashash va yetuklikka erishuvi uchun zarur bo'lgan narsalarni yetgazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'pyadilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar natijada inson jamoasi vujudga keldi.

Indivud inson zotining alohida olingan nusxasi uning vakillaridan biridir. Shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyonbo'lib, u ma'lum va betakror indivuduallikka ega. Indivudning jamiyatga kirish jarayonlari uning ijtimoiylashuvni ta'minlaydi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishish natijasida uning jamiyatdagi qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirib olishi uchun zamin yaratadi.

Bu jihatdan u ijtimoiy ta'sir obyektidir. Shuningdek individ ijtimoiylashuv oqibatida jamiyatdagi turli munosabatlarga faollashadi va bunda u ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida harakatlantiruvchi shaxsga aylandi.

Hozirda Respublikamizning barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim borasida ham katta islohatlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tuzulmalarni insonparvarlashtirishning yangi tamoyillari, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari mafkuraviy va axloqiy tamoyillar o'zgarib borayotgan bir paytda ishsizlik moddiy yetishmovchilik bolalarning nazoratsizligi oilalarning ajralib ketishi g'ayri ijtimoiy xodisalar, alkogolizm, norkomaniya, jinoyatchilik kabi ijtimoiy muammolarni yechish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday holatda ijtimoiy yordam va muhofazaga birinchi navbatda bolalar lekin shu bilan birgalikda kattalar ham muhtojdirlar.

Bunday sharoitda jamiyatning ijtimoiylashuvi jarayoniga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlarga mos bo'lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi. Bolalning ijtimoiylashuvi xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo'lgan ob'yektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bolada boshqa bir obyektiv ehtiyoj o'ziga xoslikni namoyon qilish hissi ham shakillanadi.

Yoshlarimiz o'smirlik davridanoq jamiyatda o'z o'rnini topa bilishi bog'liq muammolar yechimiga qaratilgan. Bu masalaga yetarli e'tibor bermaslik nohush oqibatlarga, ba'zan esa og'ir fojialarga hatto ijtimoiy larzalarga ham sabab bo'lishi mumkun. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yoshlarimizni ajdodlarimiz merosidan foydalanib ular hayotidan ibrat olgan holda tarbiyalashimiz kerak.

Tavsiyalar.

- O'smirlar ijtimoiylashuvi jarayonida qadriyatli me'yorlarini kuchaytirish.
- O'smirlar ijtimoiylashuvida ota-ona, mahalla va boshqalarning ta'srini yuksaltirish.
- O'smirlar ijtimoiylashuvi jarayonida ibratning roli.

GLOSSARIY

Falsafa va sosiologiya-jamiyat va atrof-muhit rivojining umumiy qonuniyatlari haqidagi fanlar sifatida odamlarning hayoti va faoliyatining ijtimoiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

Siyosatshunoslik-ta'limdagi siyosiy hodisalar va jarayonlar bilan bog'liq didaktik masalalarni ochish uchun xizmat qiladi.

Etnologiya-didaktikaga odamlarning milliy o'ziga xosliklarini to'g'ri hisobga olishda yordam beradi, qaysiki ta'limda milliy tajribalar o'ziga xos xususiyatga ega.

Pedagogikpsixologiya-ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonining psixologik qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olishga imkoniyat beradi.

Xususiy metodika-alohida predmetlarni o'qitishda ta'limning turli shakl va vositalarini qo'llanishining o'ziga xosliklarini aniq hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

Ta'lim – ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, kishining shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

Ta'lim berish – ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarning o'qish – o'qitish jarayonining mazmun – mohiyatini ongli ravishda anglab etishlari orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim dasturi – o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi bloklarga jamlangan ro'yxati.

Ta'lim maqsadi – har bir pedagogik texnologiyani yaratishga asos bo'lib hisoblanadi. Maqsadning zamonaviy ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan bo'lishi zarur asos hisoblanadi. Biror pedagogik texnologiyani yaratish uchun eng zarur shart shunday dolzarb maqsadni aniqlay olishdan iborat. Bunday maqsad zarur tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar olib borish, o'zining va boshqa mutaxassislarning ish tajribalarini chuqur tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Ta'lim mazmuni – insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va harakteri.

Ta'lim metodi – bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir.

Ko'nikma-bu o'zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalangan ongli faoliyat

Malaka- avtomatlashgan, o'rganib qolinggan, muayyan usul bilan bexato bajariladigan harakatdir.

O'rganish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

O'qitish- qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

Maqsad(o'quv, ta'limiy) - o'qitish nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida nimaga safarbar etilishi.

Maqsad– qo'yilgan muammo (maqsad) yichimiga intilishi yo'nalishi va bu boradagi harakatlar natijasi.

Metodika– biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi.

Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika fanini o'qitish metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar.

Vosita- o'quv jarayonini predmetli qo'llab – quvvatlanishi. Vositalarga o'qituvchining jonli nutqi, keng ma'noda uning mahorati, darsliklar, sinf jihozlari va boshqalar.

Natija– dars mashg'ulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelingan va ta'limning ma'lum muayyan jarayonidan olingan yakuniy natijasidir.

Adaptasiya- o'z-o'zini boshqarish va tartibga solish imkoniyati.

Bolaning ijtimoiylashuvi-bolani ijtimoiy xayotga qo'shilishi,jamiatga xos bilimlar,qadriyatlar, me'yor va qoidalar xulq atvor namunalarini o'zlashtirish.

Bolalikni ijtimoiyhimoyalash-qonunchilik va bola huquqlari tog'risidagi xalqaro konvensiyada mustaxkamlangan, voyaga etmaganlar huquqlarining kafolatlarini ta'minlash

Vasiylik-muomalaga layoqatsiz shaxslarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini ximoya qilish.

Deviant xulq atvor-Ijtimoiy yoki axlokiy me'yorlarga mos kelmaydigan xulq atvor.

Etim bolalar – 18 yoshgacha bo'lgan, turli sabablar bilan ota-onasining biri yoki ikkalasi xam yo'q bolalar.

Jamoa- ijtimoiy munosabatlar va yagona ijtimoiy faoliyat asosida birlashgan gurux.

Ijtimoiylashuv- insonning butun xayoti mobaynida o'z-o'zini o'zgartirish va rivojlantirishning boshqariladigan va maqsadga yo'naltiriladigan jarayoni.

Ijtimoiy tarbiya-bolaning ijtimoiy zarur sifatlarini shakllantirishga qaratish maqsadida amalga oshiriladigan jarayon.

Kompensasiya- buzilgan funksiyalaro'rmini to'ldirish, rivojlantirish

Ijtimoiy ta'minot-davlat moddiy ta'minoti va ijtimoiy yordamgarmuxtojlariga yordam ko'rsatish doirasida turli ijtimoiy yordamlar ko'rsatish tizimi.

Korreksion tarbiya-jamiyatdagi xayotga ko'nikishish uchun sharoitlar yaratish

Oila-insonlar kundalik xayotining asosiy qismi jinsiy munosabatlar,bolani dunyoga keltirish,bolalarning ijtimoiylashuvikabi xolatlar sodir bo'ladiganijtimoiy institut.

Ijtimoiy pedagog-ijtimoiy pedagogik faoliyatni yuqori darajada yurita oladigan mutaxassis

Xomiylik-aloxida shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan kam ta'minlangan oilalar, muxtojlariga ko'rsatiladigan yordam.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.:1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 1992.
3. O'zbekiston Respublikasi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". -T.: 1997.
4. Yuksak bilimli intiliktual rivojlangan avlodni tarbiyalash. Mamlakatni baraqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. –T.: 2012. 16-17 fevral.
- 5.Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild. -T.: O'zbekiston, 1996.-123.B.
- 6.Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild. -T: O'zbekiston, 1996.-246.B.
- 7.Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. Asarlar, 4-jild. -T: O'zbekiston. 1996.-214.B.
- 8.Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar, 5-jild. -T.: O'zbekiston. 1997. -178.B.
- 9.Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. To'plam. To'ldirilgan ikkinchi nashri. Tuzuvchilar Qurbonov.Sh., Saidov.X., Axliddinov.R. –T.: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. -348.B.
10. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8-jild. –T.: O'zbekiston 2000.–B.84-102.
11. Karimov I. A.Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. Asarlar, 12–jild.-T.: O'zbekiston, 2004. -197.B.
12. Karimov I. A. Inson, uning huquq va erkinliklari–oliy qadriyat. 14-jild.-T.: O'zbekiston 2006. -286.B.

13. Karimov I.A. Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so‘zlagan nutqi. Bishkek. 2007 16 avgus-T.: «Xalq so‘zi» gazetasi, 2007. 17 avgust.

14. Karimov I. A.Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch.-T.: Ma’naviyat. 2008. - 171.-b.34-35.

15. Karimov I.A.Barkamol avlod–kelajagimz tayanchi-T.: Ma’naviyat. 2010.- 192.-b.43.

16. Karimov I.A. O‘zbekiston Mustaqillika erishish ostonasida. O‘zbekiston. 2011.-440.-b.134.

17. Abu Ali Ibin Sino. Hikmatlar. O‘zbekiston1980.-b.43-46.

18. Aliqulov.X., Omonova.G., Jomiy. Dovoniy ta’lim-tarbiya haqida. -T.: O‘qituvchi, nashriyoti, 1981.-b.124-125.

19. Abu Rayxon Beruniy.Ruhiyat va tarbiya haqida. -T.: 1992.-b.78.

20. Fozilov,J, va boshqalar.O`quvchi ma’naviyatini shakllantirish. -T.:2000.-b.78.

21. Hadis va hayot. -T.: “Sharq”. 2000-2005. –b.32.

22. Mahmud Qashg‘ariy. Devoni lug‘ati turk. -T.: “Fan” 1982.-b.56-57.

23. Musurmonova.O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi .-T.:1996.–b.56.

24. Ma’rifat gazetasi 2007-2008.–b.12-16.

25. Qur’oni Karim. Manbalar tarjimasi. Tarj. Alouddin Mansur. -T.:2004.-b.54.

26. Quronov.M.Otalar kitobi.-T.:2006. 12-13betlar.

27. Quronov.M. Milliy tarbiya -T.: 2007. –b.57.

28. To‘xtaxodjaeva.M, va boshqalar. Pedagogika -T.: 2008. –b.76.

29. Xojiahmedov.A.Mahalla odobi. -T.: 2001. –b.16-17.

30. Xasanboeva.O, va boshqalar.Pedagogika tarixi. -T.:2001.-b.84.

31. www.google.uz

32. www.ziyone-T.:uz

33. www.fikr.uz

34. www.ziyoistagan.uz

Mundarija.

Kirish.	3
I. Bob. Shaxs va uning ijtimoiylashuv jarayoni.	
1.1. Ijtimoiylashuv tushunchasining mohiyat mazmuni vositalari, mexanizm, omillari.	10
1.2.Shaxs ijtimoiylashuvida oila, maktab, mahallaning o‘rni.	23
II.Bob.Ijtimoiylashuv jarayonida o‘zbek xalq pedagogikasining ahamiyati.	
2.1.O‘zbek xalq pedagogikasining ijtimoiy xususiyatlari.	38
2.2.O‘zbek xalq mentaliteti ijtimoiylashuvining an’anaviy omili sifatida.	50
Xulosa.	63
Ilovalar.	65
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	78